

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
XMI VA MAMLAKATSHUNOSLIK FAKULTETI
“XITOYSHUNOSLIK VA KOREYASHUNOSLIK” KAFEDRASI**

Bitiruv malakaviy ishi

Mavzu

XXRda megapolislar rivojlanishi: Shanxay misolida.

Bajardi: “Xorijiy mamlakatlar
iqtisodiyotiva mamlakatshunoslik”
ta’limy yu’nalishi 5342500
"Xitoyshunoslik" bitiruvchisi
Xasanova Gulmira

Ilmiy rahbar: dotsent i.f.n. G.A.
Melibayeva

MUNDARIJA

Kirish	2
---------------------	----------

-bob. Zamonaviy dunyo megapolislarini rivojlanish tendensiyalari

1.1. Megapolislarni vujudga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.....	6
1.2. Rivojlangan mamlakatlar megapolislari.....	14

II-bob. XXRda megapolislarni vujudga kelishi va ularni tashkil topishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar

2.1. Shanxayni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.....	23
2.2. Shanxayni megapolis bo'lib rivojlanishidagi istiqbol va muammolar.....	33
2.3. Toshkent megapolisini rivojlanish istibollari.....	36

Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	57

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. XX asrda dunyoda urbanizatsiyani shiddatli jarayonlari sodir bo'lib, ular rivojlanayotgan mamlakatlarning yirik aglomeratsiyalari rivojlanishida, iqtisodiy va siyosiy markazlar paydo bo'lishida o'z aksini topdi. Ular mamlakatning boshqa rayonlaridan iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan ajralib turardilar. Shunga o'xshash holat Xitoyda kuzatilib, oxirgi 20 yil ichida Xitoy megapolislari iqtisodiy o'sish va rivojlanishning mustahkam va ijobiy dinamikasini o'zida namoyon etib, XXRda rivojlangan bozor iqtisodiyoti shakllanishiga majmuaviy ta'sir ko'rsatdilar. Xitoy megapolislarini tezkor rivojlanishi, ularni nafaqat Xitoy ko'lamida, balki butun dunyoda ilg'or markazlarga aylanishi, zamonaviy etapda bu shaharlarda ro'y berayotgan jarayon va tendensiyalar mavzuning dolzarbligini aniqlab beradi.

Xitoy iqtisodiyotini qaytadan tuzish , 1978 dan to 2011 yilgacha rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga uzoq muddat ichida o'tishda, xitoy megapolislarini rivojlanish va modernizatsiya tayanch markazlari sifatida ahamiyatini tahlil qilishdadir. Ko'rsatib o'tilgan muddat ichida to'rtta markazga bo'ysunuvchi shaharlar mamlakat iqtisodiyotida sezilarli rol o'yna boshladilar: ularni YaIMdagi ulushi-12%, YaIMni o'sishi yiliga barqaror 10%dan oshadi, xizmat ko'rsatishdagi ulush-20% atrofida. O'zini iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatiga qo'shimcha ravishda Xitoy megapolislari xitoy jamiyatida muhim siyosiy va mafkuraviy rol o'ynamoqda, ular alohida "modernizatsiya" namunasi bo'lib, butun dunyo jamoatchiligiga islohotlar o'tkazish yillarida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi yutuqlarni namoyon etmoqda.

Shuni aytib o'tish kerakki, Xitoy boshqa mamlakatlarga o'xshamagan tuzilmasi va ierarxiyasi boshqacha bo'lgan shaharlarga ega bo'lib, bu farq qishloq hududlarini shahar muhitiga yaqin integratsiyasi va aholini asosiy qismi joylashgan rasman yirik shahar hududlarini shakllanishi bilan asoslanadi. Bu shaharlarda aholi

iqtisodiyotdagi birinchi tarmoq-qishliq xo'jaligi bilan banddir. Mazkur xususiyat xitoy shaharlari ierarxiyasini eng yuqori pog'onasi bo'lgan markazga bo'sunuvchi shaharlar(keyinchalik MBSH)da yorqin namoyon bo'ladi. Markazga bo'sunuvchi shaharlar jahon tajribasida hududiy tuzilmalarni o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, shaharga bo'sunuvchi qishloq uezdlaridan va birlashtiruvchi shahar yadrosidab tashkil topadi. Shu bilan birga, MBSH birlashgan ma'muriy birlikdir. MBSH ko'rsatib o'tilgan hududdiy tuzilmasini xususiyatlari va uni megapolislarni umumbashariy tushunchalariga mos kelishi mazkur tanlangan dolzarb savolni tadqiqot mavzusini aniqlab beradi.

Barcha to'rt MBSH-Pekin, Tyanzin, Chuntsin va Shanxay obyektiv ko'rsatkichlari aholi soni va hududi kattaligi bo'yicha mamlakatni yirik shaharlari hisoblanadi, lekin iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Markazga bo'sunuvchi shahar- Shanxay ijtimoiy-iqtisodiy sohada yetakchi o'rinni egallaydi, shuning uchun ham bu megapolisni xitoy iqtisodiy islohotlari amaliy ko'rinishini yaqqol misoli sifatida o'rganish ayniqsa dolzarbdir. Mazkur ish bozor islohotlari jarayoni va shahar rivojlanish strukturasi tadqiqotlari misoli Shanxay megapolisiga bag'ishlanib, uni iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmushi barqarorligi, islohotlar tajribasi tadqiqotlarini O'zbekiston sharoitiga imkon qadar tadbiq qilish maqsadida o'rganiladi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Xitoy Xalq Respublikasi rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini xitoy megapolislari-Shanxay misolida ko'rsatib, erishilgan ijobiy va salbiy natijalarni namoyon qilish, hamda mavjud rivojlanish yo'llarini, istiqbollarni ko'rib o'tishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim vazifalarni hal etish taqozo qiladi:

- bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonlari, XXR megapolislarida boshqaruv tizimi islohotlarini ko'rib chiqish;

- zamonaviy megapolislarni jahon iqtisodiyotida klassifikatsiya qilish;
- megapolislarni vujudga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rsatib o'tish;
- rivojlangan mamlakatlar megapolislarini o'rganib chiqish;
- xitoy Xalq Respublikasida megapolislarni vujudga kelishi;
- megapolislarni tashkil topishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar;
- Shanxayni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ko'rib chiqish;
- Shanxayni megapolis bo'lib rivojlanishidagi istiqbol va muammolarni o'rganishdan iborat.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xitoy Xalq Respublikasida megapolislarni rivojlanishini shanxay shahri misolida horijlik bir qator olimlar, jumladan, L.I. Abalkina, O. T. Bogomolova, S.Y. Glazeva, A.D. Nikepelova, M. L. Titarenko xitoylik, L. Delyusin, Lyu Goguan, Fam Txi Lan An hamda o'zbek olimlardan R. Alimov, G. Melibayeva, A. Isadjanov, T. Xikmatovlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlari o'z yechimini topgan.

Oxirgi yillarda bir qator ishlar nashr etilgan bo'lib, ularda xitoy jamiyatida o'tkazilgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik islohotlar tadqiq qilingan. Bunday nashrlarga xitoyshunos- iqtisodchilar E. F. Avdokushin, E.S. Bajenova, L.D. Boni, O.N. Borox ishlarini kiritish mumkin.

Mavzuning obyekti va predmeti. Mavzuning obyekti Xitoy Xalq Respublikasida 1978-2011 yy davomida megapolislarni vujudga kelishidir. Mavzuning predmeti esa Shanxay megapolisi rivojlanishi davomida o'tkazilayotgan islohotlarda mavjud muammolar va zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy muhitni paydo bo'lishini o'rganish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Bozor islohotlari va Xitoyning eng yirik shaharlarining rivojlanish mavzusi bugungu kunda nafaqat O'zbekistonda, balki xorijda ham yetarli darajada tadqiq etilmagan. So'nggi yillarda Xitoyda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning turli masalalari

bo'yicha yetarli darajada ko'p sonly ilmiy ishlar tayyorlangan bo'lsa-da, ularning natijalari mamlakatning eng yirik shaharlari misolida tahlil qilib ko'rilmagan. Mazkur bitiruv malakaviy ishida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonidagi Xitoy megapolislarning iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarini majmuasi tadqiq etilgan. Modernizatsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida Shanxay tomonidan o'zlashtirilgan tajriba tahliliga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmlarining ko'p sonly o'sishi, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hamda jahon xo'jaligiga bo'lgan tezkor integratsiyaning ta'siri ostida markazga bo'ysunadigan shaharlarda ijtimoiy- iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiyotning uch sohasi – qishloq xo'jaligi, sanoat va xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy tendensiyalari va muammolari tadqiq qilingan, iqtisodiy o'sishning dolzarb xususiyatlari ochib berilgan. Megapolislar aholisining o'sishi va ijtimoiy muhitiga muayyan ta'sir ko'rsatuvchi demografik, migratsion va ekologik holatlar muammosi ko'rib chiqildi.

Megapolislar rivojlanishining keying yo'nalishlari istiqboli ko'rib chiqilgan, o'rta va uzoq muddatli vaqt oralig'ida megapolislar rivojlanishining mazmuniga katta ta'sir ko'rsatuvchi tarkibiy omillar ajratib ko'rsatilgan.

Mavzuning metodologik jihatlar. Tadqiqot metodologik asosini Shanxay megapolsini rivojlantirish bo'yicha mavjud qonunchilik bazasi, normativ hujjatlar, megapolislarni vujudga kelishini nazariy jihatlarini o'rganish, mavjud holatni kuzatish, statistik tahlil qilish, mamlakatda olib borayotgan islohotlarni megapolislar rivojlanish muhitiga ta'sir qilish istiqbollarini o'rganish tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismidan iborat.

I-BOB. ZAMONAVIY DUNYO MEGAPOLISLARINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

- **Megapolislarni vujudga kelishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.**

Dunyoning yirik sanoat markazlarida mehnatga layoqatli aholini, kapitalni va ishlab chiqarish markazlashuvi va yig'ilishi jarayonida, megapolislar ishlab chiqarish kuchlarini dominant hududiy-tashkiliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaharni urbanizatsiya muammolarni ashhur tadqiqotchilaridan biri, fransuz olimi F.Brodel, shaharlarni xususiyatlari va muammolarini o'rganib, yozgan, shaharlar va pullar yangi dunyoni yaratdi, bir vaqtning o'zida rivojlanishni ko'rsatkichi va harakatga keltiruvchi omilidir, o'zgarishlar keltirib chiqaradi va ularni ko'rsatadi, lekin ular sababchisi hamdir.

Megapolislarni paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganishni muhimligi, turli xil davrlarda dunyo hamjamiyatlarini jahondagi milliy boylik va hokimiyatni taqsimlashda bosh rolni yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazlari geografik joylashuvi o'ynaganligi bilan tushuntirish mumkin. Megapolislarni tadqiqot qilish jarayoni XX asrning ikkinchi yarmining boshiga to'g'ri keladi. Masalan, 1960 yil J. Gotmanning monografiyasida "Megapolis" birinchi bor yirik

shaharlar kategoriyasidan megapolislar ajratib olindi va mustaqil guruhlarga aniq ajratildi, shaharlarni rivojlanishi va urbanizatsiyani yangi etapini o'ziga xos ko'rinishiga aylandi.

Megapolislar jahon markazlari yoki global shaharlar xususiyati va ko'rinishiga ega bo'lib, jahon iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va inson jamiyatida umuman katta ta'sir ko'rsatadi.

Megapolislarni eng tarqalagan xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

- shaharni kattaligi;
- moliya va ish markazi sifatida umumjahon roli;
- xizmatlar sohasini rivojlanganligi;
- axborot markazi sifatida jahondagi o'rni;
- siyosiy markaz sifatida nafaqat milliy, balki jahondagi yetakchi o'rni;
- xalqaro tashkilotlarni mavjudligi va shaharni xalqaro funksiyalarni bajaruvchi sifatidagi vazifasi;
- transmilliy kompaniyalar stab-kvartiralarining va idoralarni yirik filiallarini yi'g'ilganligi;
- milliy va jahon savdo markazlari sifatidagi roli;
- san'at va madaniyat markazi sifatidagi yuqori ahamiyati;
- yuqorimalakali faoliyat turlarining muhim markazi sifatida;
- xalqaro transport yirik tarmog'i va shahar ichidagi transport muammolarini mavjudligi;
- aholini asosiy guruhlari o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy disproportsiyasini kattalashishi.

Megapolislar – urbanizatsiyaning eng yuqori darajasidir. Urbanizatsiya – bu nafaqat shaharlarni tez o'sishi va rivojlanishi, shahar aholisi ulushishini oshishi, balki, jamiyatda va hayotni barcha sohalarida shaharni roli va ahamiyatini oshishi, hamda shahar aholisini qishloq aholisidan ortib ketishidir. Bir-biriga yaqin

joylashgan, ko'p sonli shahar aglomeratsiyalarini bir joyga yig'ilishi va megapolis deb nomlanishga tendensiyalarni mavjudligidir. Birinchi bor bu atama yuqorida aytib o'tilgan J. Gotman tomonidan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan AQShning shimoli-sharqi bo'ylab Bostondan Vashingtongacha cho'zilgan muttasil shahar qurilishini ("Bosvash" hozirgi kunda o'z ichiga dunyoning 15ta aglomeratsiyasini o'zida jamlovchi, aholisi 40 mln kishi) nomlash uchun ishlatilgan.

Megapolislar tarkibiga kiruvchi barcha shaharlar, aholini murakkab mayatniksimon tashish umumiy transport tizimiga egadir. Sanoat, transport va aholini ko'payishi yirik va eng yirik shaharlarda ekologik yashash muhitini keskin yomonlashtirdi. Jahonning gigant shaharlarida aholini o'rtacha zichligi quyidagicha(1kml):

- Parij – 32ming kishi;
- Tokio – 16ming kishi;
- Nyu-York, London – 10ming kishi;
- Moskva – 9ming kishi;

Yirik megapolislar murakkab va aniq bo'lmagan hududiy chegaralarga ega bo'lib, megapolislar quyidagi qismlarga bo'linadi;

- Markaziy qism – biznes va boshqaruv yuqori muassasalarining joylashuv markazi;
- Ichki qism – markaziy hududga shahar qurilishlarini qo'shilishi;
- Tashqi qism – shaharni ma'muriy chegaralaridan tashqaridagi hududi, markaziy va ichki qismini qo'shmagan holda.

Zamonaviy megapolislar juda muhim muammolar bilan bog'liq bo'lib, ular XXI asrda makroiqtisodiy jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Megapolislar makroiqtisodiy va makroiqtimoiy tendensiyalar markazi hisoblanadi. Megapolislarni rivojlanishini asosiy tendensiyalari: globalshuv, axborot texnologiyalarini ahamiyatini oshishi, insonni jamiyatni turli xil tomonlaridagi

innovatsiyalardir. Ushbu tendensiyaning har biri jamiyatni ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sir etib, o'zini sabablariga ega va megapolisga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun megapolislardagi ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqishni asosiy omili bo'lib, ularni rivojlanish tendensiyalarini ko'rib chiqish sanaladi.

Shunday qilib, J. Gotmanning amerika megapolisi "Bosvash"ni tadqiq etishdagi, megapolis haqidagi tushunchasini to'g'ri deb hisoblayman. Muallif yirik jahon megapolislari tizimiga qisqa tushuncha berib, megapolislarda sanoat, taransport va aholini yuqori konsentratsiyasi ko'rsatib o'tdi. Bu esa ekologik holatni yomonlashishiga va turli xil ijtimoiy muammolarni kuchayishiga olib keladi.

Megapolislarni chegaralarini hududiy analiz qilib, markaziy, ichki va tashqi qismlarga ajratib chiqildi. Megapolisni markaziy va ichki hududlarida ba'zi bir ijobiy va tashqi qismida salbiy tendensiyalar belgilangan.

Megapolislarda turli xil tendensiyalar ko'rinadi, ular qatorida makroiqtisodiy makroiijtimoiy, ular joylashgan mamlakatlar uchun ham xosdir. Ayniqsa bu xususiyat poytaxti megapolislar bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir(London, Parij va h.) ularda poytaxt funksiyalarini haddan ortiq yig'ilishi, yirik jahon korporatsiyalari, qudratli moliya tizimlari va boshqa muhim holatlar bu megapolislarni nafaqat mamlakat, balki jahon mintaqalaridagi(Yevropa va b.) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini belgilab beradi.

Megapolis – yuqori urbanizatsiyalashgan, rivojlangan mamlakatlar doirasida shaharlarni aholilashini tezkor rivojlanish ko'rinishidir. Bu atama qadimgi yunon Megapol shahridan kelib chiqqan bo'lib, Arkadiyadagi 35ta shaharchalarni qo'shilishi natijasida vujudga kelgan.

Megapolisning nisbatan tarqalgan ma'nosi: Megapolis – ko'pgina o'sayotgan kichik shaharlarni o'zida jamlovchi yagona shahar maydoni hisoblanadi.

Bugungi kunda shunday favqulodda hodisalardan biriga guvohi bo'lmoqdamizki, u madaniyat, siyosat va insoniyatning butun turmush tarziga katta va yanada katta ta'sir ko'rsatmoqda. Nafaqat sayyoramiz aholisining ko'payishi, balki insonlarning alohida yirik shahar aglomeratsiyalari – megapolislarida to'planishi sodir bo'lmoqda. Yirik shaharlar atrofidagi qishloq joylarini o'z domiga tortib, nafaqat shiddat bilan ko'payib bormoqda, balki aholisi bir necha o'n millionlab kishilar istiqomat qiladi.

Bir shaharni boshqasidan ajratib bo'lmaydi –u bir butunlikni tashkil qiladi. Ularni faqat ma'muriy bo'linish ajratib turadi. Tokio va Osaka o'rtasidagi mushtday joyda butun Yaponiya aholisining qariyb yarmi istiqomat qiladi va mamlakat yalpi milliy mahsulotining yarmidan ortig'i ishlab chiqariladi.

Yaqin yillarda yirik shaharlarning yanada ko'payishi va kichik shaharlarning asta-sekin tugatilishini kutish mumkin. Bunday holat, xususan, prinsipial texnik o'zgarishlar va sanoatning tuzilmaviy qayta qurilishi bilan bog'liq. Qayta ishlash sanoatining roli kamayadi, yaqin vaqtlarga qadar sanoat va mamlakat qudratining asosini tashkil etgan metallurgiya sanoati va boshqa ko'plab tarmoqlarning hajmi kamayadi. Bunday ishlab chiqarish holatlarida aholining sezilarli qismi so'nggi vaqtlarga qadar qishloqlarda (shaharchalarda) istiqomat qilgan.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarga o'tish nafaqat aholi harakatiga, balki insonlarning katta shaharlarga ko'chib o'tishiga olib keladi. Dastlab qishloqlardan ishchi shaharchalarga, shaharchalardan shaharlarga, shaharlardan megapolislarga bo'lgan bunday migratsiya sayoramizning aksariyat ko'plab mintaqalari uchun xosdir.

Megapolislarni asosiy jihatlari: asosan transport magistrallari bo'ylab cho'zilgan qurilishning muntazam xarakterga egaligi; bir-biriga juda yaqin joylashgan yirik shaharlarning o'zaro munosabati bilan bog'liq umumiy polisentrik tuzilmasi; atrof-muhit bilan inson faoliyati o'rtasidagi ekologik tenglikni buzilishidir.

Megapolis atamasi ilk marotaba bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashingtonaglomeratsiyalari – AQShda Atlantika okeani bo'ylab cho'zilgan muttasil shahar qurilishini (uzunligi 1000kmdan ortiq va kengligi ba'zi joylarda 200kmgacha yetgan, aholisi 40 mln kishi) nomlash uchun ishlatilgan.

Quyidagilar mashhur va yirik megapolislar bo'lib hisoblanadi:

Tokaydo (Tokio va Osaka) – Yaponiya;

Reyn-Rur(Reyn va Rur tushashish joyi) – Germaniya;

Chipits – AQSh va Kanadadagi Buyuk ko'llar hududi;

London-Liverpul– BuyukBritaniya;

Sansan yoki janubiy kaliforniya (San-Fransiskodan San-Dieogacha) AQShda;

Bosvash(Bostondan Vashingtongacha)– AQSh;

Yantszi havzasi– Xitoy;

Marjon daryosi havzasi –Xitoy.

Hozirgi kunda dunyoda istiqomat qilayotgan yeti milliard aholining yarmi yirik shaharlarda istiqomat qiladi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda shahar ahilisining ulushi sezilarli ko'proqdir. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT) ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi 25 yil ichida urbanizatsiya darajasi faqatgina oshib boradi. Shu bilan bir qatorda, yirik shaharlarni rivojlanishi dolzarb muammolar qatoriga kirmoqda va aynan ularni muvaffaqiyatli yechimidan nafaqat milliy iqtisiotlarni, balki umumiy jahon iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni barqarorligi va dinamikasi bog'liq bo'lib qoladi.

Jahondagi shaharlar global axborot tarmoq yoki boshqacha qilib aytganda, bilimlar iqtisodi makazida joylashgan bo'lib, uarni ierarxiyasi yuqori xizmatlar yo'nalishidagi transmilliy kompaniyalar tashkiliy tuzilmalar hisobi bilan qurilmoqda. Bu postindustrial iqtisodiyotni ko'rinishi bo'lib, unda moliya, OAV, ta'lim, sog'liqni saqlash, turizm bilan bog'liq biznes jamlangandir.

Zamonaviy sharoitda megapolislar milliy iqtisodiyotlarni rivojlanishida sezilarli hissa qo'shishmoqda. Xalqaro statistikaga ma'lumotlariga ko'ra, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT) mamlakatlari megapolislariga o'sha mamlakatlarning YaIMsini 10-15%i to'g'ri kelmoqda.

Kopengagen Daniya YaIMsini 49,6%ini ta'minlaydi.

Dublin, Bryussel, Xelsinki, Budapesht-o'z mamlakatlari YaIMsini 42-47%ini;

Vena, London, Parij, Stokgolm va Tokio mamlakatlari YaIMsini 28-34%ini tashkil etadi.

Bunday iqtisodiy konsentratsiya nafaqat miqdoriy omillar bilan izohlanadi. Megapolislarini ko'pchiligida ishlab chiqarish mehnati mamlakatlarni boshqa qismlariga nisbatan yuqoriroqdir(ayniqsa amerikanikida, Yevropada farqi kamroq). Megapolis aholisi nisbatan ko'proq ishlaydi va yuqoriroq malakaga ega bo'ladilar. Shahar yalpi mahsulotini o'sish tempi milliy YaIMdan oshadi.

Megapolislar inson kapitali, moliya va innovatsiyalarni o'ziga jalb qiladi. Shu bilan birga aytib o'tish kerakki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(IHTT) mutaxassislari hisob-kitoblariga ko'ra, megapolislarni iqtisodiy tomondan ko'rib chiqilgan o'sishi – 7mln kishidab oshmasligi zarur. Bundan keyin aholi soni bilan, YaIMni aholi jon boshiga to'g'ri kelishi, aholi yashash sifat darajasi salbiy tarafga o'zgaradi.

Xalqaro mutaxassislarni hisoblariga ko'ra, BMTni shahar muammolari Butunjahon forumida keltirilishicha, dunyoning 2300 yirik shaharlaridan faqatgina 22tasi hozirgi zamonaviy talablarga javob bera oladi. Uni qatoriga Xitoyni 1ta ham megapolisi kirmagan. Lekin shu bilan birga aytib o'tish joizki, hozirgi paytda bu borada qator shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun bir qator kompleks choralar ko'rilmogda.

Megapolislarni yaratishda va iqtisodiy siyosatida muvaffiqiyatli natijalarga ilmiy-texnik siyosatni, old va yangi texnologiyalarni keng ko'lamda qo'llamasdan

erishib bo'lmaydi.

Yuqori texnologiyalar, ITTKI, OAV, maxsus mashinasozlik, moliya xizmatlari, yirik kompaniyalarning boshqaruv tizimi megapolislarga intiladilar va ular o'rtasida maxsuslashuv ro'y beradi-ba'zi birlarida yuqori texnologiyalar ustun bo'lsa, ba'zilarida moliya va xalqaro eksport bozorlari borasidagi xizmatlar va boshqalar. Bu yerda jarayon murakkabroq. Masalan, rivojlangan ijtimoiy tarmoqqa ega yirik shaharlar migrantlarni jalb qilishi mumkin, ayniqsa inqiroz vaqtlarida. Past mutaxassislikka va kam ish haqi oladigan bunday ishchilar yirik mahalliy bozorida manfaatdor kiyim-kechak ishlab chiqaruvchilar uchun va arzon mehantda juda kerakli hisoblanadi.

Megapolislarda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni joylashtirish, ma'lumot almashinuv markazlarida ularni rivojlanishini tezlashtirish va informatsiya nuqtai-nazaridan korxonalar yetarlicha bo'lsa, ular yo'ldosh shaharlarga ko'chishi mumkin, chunki u yerda yer va mehnat kuchi arzonroq hisoblanadi. Radio, televideniya va personal(shaxsiy) kompyuterlar texnologiyasi asosida odatda megapolislar rivojlanadi(masalan, Tokioda), tadqiqot fazasida standartlashuvga qadar bu ishlab chiqarishlar mamlakat bo'ylab yoki chet elga tarqaladi. "Yangi mahsulotni rivojlanishi va ITTKI megapolislarda yig'ilayotgan to'yingan informatsion muhitni talab etadi, bir vaqtda standartlashgan ishlab chiqarish kam yer va mehnat harajatlarni talab etib, ularni esa uncha rivojlanmagan mamlakatlarning kichik shaharlarida topish mumkin".

Aholining shahar bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi, shahar aholisini salmog'i har bir mamalakat yoki uning ayrim hududlarining rivojlanish darajasini shu hudud xo'jaligining industrial yoki agrar xarakterga ega ekanligi urbanizatsiya darajasini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir.

Hozirgi kunda urbanizatsiyalashgan hudud jami dunyo hududining bir foiz maydonini egallagan holda, dunyo sanoat mahsulotini 80 foizini ishlab chiqarmoqda. Tabiatga chiqarilayotgan chiqindining 80 foizi ham

urbanizatsiyalashgan hududlarga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahon jarayoni qiyofasida ko'pchilik mamlakatlar uchun xos bo'lgan uchta asosiy umumiy belgi bilan xarakterlidir.

Birinchi belgi – shahar aholisining jadal sur'atda o'sishi XX asr davomida jahonda shaharliklar soni 13 marta ko'paydi. Faqat 1950-1970 yillarda u 80% dan ko'proqqa oshdi. 1970-1990 yillarda esa salkam 70 % ga o'sdi. Hozirgi kunda shaharlar aholisi qishloqlarni ma'muriy jihatdan shaharlarga aylantirishni, qishloqdan shaharga ommaviy migratsiyani kuchayishi tufayli qishloqqa qaraganda 3 marta tez o'smoqda. Bu jarayon XXI asrning birinchi yarmida ham saqlanib qolishi kerak. Tahminlarga ko'ra 2025 yilga borib shaharlar aholisi 5 mlrd kishiga yetadi va jahon aholisini ulushi 60% ga ko'tariladi.

Ikinchi belgi –shahar aholisining to'planishi davom etmoqda, eng avvalo katta shaharlarda bu shlab chiqarish xarakteri, uning fan, ta'lim, ishlab chiqarish sohalari bilan aloqasi murakkablashuvida namoyon bo'ladi. Katta shaharlar, odatda, insonlarning ma'naviy ehtiyojini qondiradi, turli xil tovarlar va xizmatlarning ko'pligi bilan yaxshi ta'minlaydi, axborot olish imkoniyatlarini kengaytiradi. XX asr boshlarida dunyo butub shaharlar aholisining 5% yashayotgan 360ta katta shaharlar sanalgan, 1950 yilga kelib shaharlar soni 950taga yetdi, aholisi 36 %ni tashkil etdi.

1990 yilda shaharlar 3500 ta bo'ldi, aholisi soni 68%ga yetdi. Katta shaharlar orasida "Millioner" shaharlar alohida ajralib turadi va ularning soni ham ko'paymoqda. 2005 yilda "millioner" shaharlar jahonda 430tadan ortdi, ularning aholisi 1,3 mlrd kishiga yetdi.

Uchinchi belgi – shaharlarning siljishi, ya'ni ular hududlarining kengayishi urbanizatsiyaning hozirgi bosqichi uchun aniq nuqtada joylashgan shaharlarni shahar aglomeratsiyalariga qo'shib keng shahar guruhlariga ko'chishi, ko'p qirrali birlashgan intensive ishlab chiqarish, mehnat va madaniy aloqalari xarakterlidir. Bunda aglomeratsiya yadrosi bo'lib, odatda, poytaxtlar, yirik sanoat,

port, ma'muriy va boshqa markazlar hisoblanadi.

1.2. Rivojlangan mamlakatlar megapolislari.

XX asr megapolislaridek holatni paydo qildi – aholisi million va undan ortiq bo'lgan. Bu jarayon o'zi XIX asrda boshlangan bo'lib, lekin umumiy xarakterga kapitalizm va industriallashuv rivojlanishi bilan birga XX asrda ega bo'ldi. Aynan yirik sanoat korxonalari megapolislarni vujudga kelishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

1-jadval

**Dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar, aholisi 10mlndan ortiq(2010yil
ma'lumotlariga ko'ra)**

Megapolislar	Aholisi(mln)	O'z ichiga oladi	Mamlakat
Tokio	35	Yokogama, Kawasaki, Saitama	Yaponiya
Seul	23,9	Puchxon, Koyan, Inchxon, Sonnam, Suvon	Janubiy Koreya
Mexiko	22,9	Nesaualkoyotl, Ekatepek-de-	Meksika

		Morelos, Naukalpan-de- Xuares	
Dehli	22,4	Faridobod, G'ozibol	Hindiston
Mumbay	22,3	Bxivandi, Kalyan, Txane, Ulxasnagar	Hindiston
Nyu-York	21,9	Nyuark, Paterson	AQSh
San-Paulu	21	Guarulyus	Braziliya
Manila	19,2	Kalookan, Keson	Filippin
Los-Anjeles	18	Riversayd, Anaxaym	AQSh
Shanxay	17,9		Xitoy
Osaka	16,7	Kobe, Kioto	Yaponiya
Kalkutta	16	Xaura	Hindiston
Karachi	15,7		Pokiston
Guanchjou	15,3	Foshan	Xitoy
Djakarta	15,1	Bekasi, Bogor, Depok, Tagengang	Indoneziya

2-jadval

Megapolislarni avtomobillashuv ko'rsatkichlari

Shahar	Ko'cha-yo'l tarmog'ini zichligi,km kmIga	Avtombillashish darajasi, 1000ta aholiga yengil avtomobillarni soni	1km yo'lga avtomobillar soni, donasi
--------	--	--	--

Markaziy Tokio	18,30	300,0	94,4
Nyu-York	12,40	480,0	261,5
London	9,30	390,0	199,2
Moskva	5,00	286,0	555,6

Manba: “Ekspert” jurnali, Analitik agentlik “Avtostat”

Jarayoni iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, samarali ishlab chiqarish uchun asosiy qism kattaroq hududda yig’iladi, bu esa transport harajatlari va infratuzilmani rivojlantirishda tejashga yordam beradi: avtomobil va temiryo’llar, aloqa xizmatlari, elektr issiqlik, suv ta’minoti va boshqalar. Ishlab chiqarish katta miqdorda mehnat kuchini talab etgani bois, zavodlar yonida ishchilar shaharchasi paydo bo’la boshlaydi. Vaqt o’tgan sari ular o’sib boradi, chunki ishchilarda dhifokorlarga, o’qituvchilarga, savdo-sotiqqa va boshqa xizmatlarga talab paydo bo’la boshlaydi. Bunday aholi punktlarida ko’p miqdorda ishchi kuchini yig’ilishi natijasida yangi zavod va fabrikalarni qurish joyini tanlashda e’tibor aynan shunday joylarga tushadi. Bir tomondan ishchi kuchini mavjudligi, boshqa tomondan maishiy tayyor mahsulotlar bozori sabab bo’la oladi. Shunday qilib, kamulyativ effekt(qayta tiklanish ta’siri) paydo bo’lgan, bu esa shaharlarni shiddat bilan o’sishiga olib kelgan. Qancha shahar yirikroq bo’lsa, shuncha u tez o’sgan.

3-jadval

**Megapolislarda sohalardagi bandlikni kichik tashkilotlat faoliyat turini
differentsiyallashuvi bilan bog’liq o’zgarishlar, %**

Megapolis		Sanoat	Qurilish	Transport va aloqa	Savdo- sotiq
Katta London		-89	-36	-20	-6
Parij	Shahar markazi		-35		
	Ichki qismi		-24		
	Tashqi qismi		-5		
Nyu- York	Shahar markazi	-35	-23	-28	-18
	Ichki qismi	-35	-22	-27	-17
	Tashqi qismi	-35	+8	+2	- 6
Tokio	Shahar markazi	-2	+4	+1	+11
	Ichki qismi	-15	+7	+2	+8
	Tashqi qismi	+11	+23	+38	+30

3-jadvaldan shuni ko'rish mumkinki, aholini zichligi va ish joylarini joylashuv zichligi megapolislarni turli xil qismlarida katta farqlarga egadir. Markaziy qismida aholi zichligidan ishchi o'rinlar zichligini kuzatishimiz mumkin. Bunday nisbat markaziy rayonlarda maksimumga yetadi(8,4 – Tokio, 6 – London,

3,27 – Nyu-York, 3,1 – Parij, 2,1 – Moskva).

Mazkur jadval shuni ko'rsatadiki, yirik shaharlar hududida faoliyat ko'rsatuvchi ko'pgina turli xil xo'jalik va ma'muriy tuzilmalar, o'z tashkilotlarini shaharni markaziy va ichki zonalariga joylashtiradilar.

Bundan mantiqiy fikr shuki, shaharni rivojlanishida sezilarli tendensiyalardan biri bo'lib, shaharning markaziy, tashqi va ichki hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy differentsatsiyasini rolini o'sishini ko'rishimiz mumkin. Yirikko'lamli ishlab chiqarishlarni priferik hududlarga siqib chiqarib, bir vaqtda ularning o'rnini ko'pqavatli uylar, sport va madaniy hordiq uchun joylar bilan almashtirmoqda.

Hozirgi kunda aytish mumkinki, megapolislar davri yakuniga yetmoqda. Bu jarayonni asosida texnologiyalar yotib, ular XX asrning 80 yyda ishlab chiqilib, 90 yyda keng qamrovda foydalana boshlandi. Ularni nomlanishi mikroprotessor, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va Internet. Inson ongini barcha yutuqlari iqtisodiyot asoslarini o'zgarishiga olib kelib, korxona, ofis va turar joylarni bir-biriga yaqin bo'lish muammosini tag-tugi bilan hal etadi.

Ishlab chiqarishni avtomatlashuvi va mikroprotessorlarni paydo bo'lishi ishchi kuchini korxonalar yonida joylashishi kerak degan muammoni hal etdi. Agar oldin avtozavodlarda smen almashib bir necha o'n ming ishchi ishlagan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib xuddi shu ishlab chiqarish hajmida bir necha yuz kishi yetarli hisoblanadi. Hodimlarni qisqartirish ikki barovarga oshgan bo'lib, bu insonlarni ishlab chiqarish tarmog'idan siqib chiqarmoqda. Xizmat ko'rsatish tarmog'i va korxonalar rivojlanib, o'zida intellectual va ilmiy faoliyatni band etmoqda.

Internetni paydo bo'lishi va shiddat bilan rivojlanishi natijasida, megapolisni tashkil etuvchi elementlardan biri – ish markazlarini yo'q bo'lishiga olib kelmoqda. Global information tarmoqni paydo bo'lishi va uni yordamida birjada operatsiyalar, kelishuvlar olib borilishi natijasida “uy idorasi” g'oyasini tobora keng tarqalishiga turtki bo'lmoqda.

Hozir ko'pgina g'arb firmalari shuni tushunishdiki, samarali biznes olib boorish uchun ularga Nyu-York yoki Los-Anjeles markazidan qimmat idoralarni ijaraga olish shart bo'lmay qoldi. Internetga bog'lanish bo'lsa bas, o'zini sayti bo'lib, kelishuv tuzishga, buyurtmalar olish kerak bo'lib qoladi xolos. Buni hammasini ming km uzoqda joylashib olib, boshqarish mumkin.

MDH mamlakatlari megapolislarida bu jarayon endi boshlanmoqda. To'xtatib turuvchi sabablardan biri, aholini hammasi ham televideniya bilan foydalanganidek, Internetdan foydalanmaydi. Lekin, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, g'arb mamlakatlariga bu narsaga erishishga bir necha o'n yil kerak bo'lgan bo'lsa, bu jarayonni biz bir necha yillarda kesib o'tmoqdamiz. Shunday qilib, 2-3 yildan so'ng uy idorasi va "virtual" kompaniyalar biz uchun oddiy hol bo'lib qoladi.

Buni hammasi shuni anglatdiki, megapolislar XXI asrda o'zini shiddat bilan o'sishini to'xtatib, sekin-asta degradatsiyaga uchraydi. Bu jarayonni asosi shundaki, ularni paydo bo'lishiga va shiddat bilan rivojlanishiga sabab bo'lgan iqtisodiy sabablar yo'q bo'ldi, aholini katta qismi endi ko'pqavatli uylarda yashashni hohlamaydi, ularni orzusi alohida kichkina bo'lsa ham shahardan tashqaridagi uylardir.

2011-yilda Nyu-York byudjetini umumiy daromadlardan 60,3%ini soliqlardan(mulk, qo'shimcha qiymat va sotuvlardan) olingan daromad tashkil etgan. Yana 10%ni shahar litsenziyalar berish va xizmatlar ko'rsatishdan oladi va deyarli 30%ini unga shtat va federal hukumat bergan. Los-Anjelesda asosiy soliq bo'lgan mulk solig'i byudjet daromadini 19%iga to'g'ri keladi, sotuvlardan bo'lgan soliqqa esa-5,2%. O'tgan yilda Nyu-Yorkni 19,45 daromadini jismoniy shaxslardan olingan daromadlar tashkil etdi. Nyu-Yorkda ta'limga ketadigan harajatlar- shahar byudjetini asosiy tarmog'i-31%, bir tomondan ijtimoiy sohaga harajatlar 30%ni tashkil etadi.

London, Tokio, Nyu-Yorkdek markazlarga raqobatlasha olish uchun

Shanxay o'zining moliyaviy qudratini va daromad bazasini oshirishi zarur.

Zamonaviy megapolislar hayotida markaziy muammo turib, undan megapolis taqdiri, balki insoniyat kelajagi bog'liq-bu ta'lim-tarbiyadi. Hozirgi kunda biz o'z e'tiborimizni yaxshi o'qituvchilar bilan ta'minlangan lit maktablarga qaratamiz. Bu juda muhim: elit maktablar- to'g'ri yo'l tanlashda mash'al vazifasini o'taydi. Lekin bir vaqtda, bu narsa juda kam, umumiy maktablar qurish zarur.

Umumiy maktablar tashkil etish, uni sifati, megapolislarda yashayotgan jamiyat uchun qo'yilgan murakkab masala hisoblanadi. Insonlar megapolislarda yashashga o'rganishi, o'zini kelajagini buzmagan holda ularni inson uchun yaxshi tarafga qarata olishi kerak. Buning uchun maxsus dastur zarurdir.

“AQSh va Yaponiyani yirik shaharlari o'zlarini iqtisodiy rivojlanish tempida rivojlangan mamlakatlarning megapolis;aridan ortda qolmoqda. PricewaterhouseCoopers(PwC) bashoratlariga ko'ra, 15 yildan so'ng, San-Paolo, Shanxay va Mumbaydek shaharlar YaIMsini ikki barovar hattoki 3 baovarga oshib, London va Parijni iqtisodiy qudratiga yetib oladi”-deb yozadi RBK daily.

PwSni YaIMni rivojlanishi darajasi bo'yicha dunyoni yirik shaharlari reytingida birinchi 30talikni Yevropa megapolislarini atigi 4tasi kirgan. Ularga Fransiya, BuyukBritaniya, Ispaniya va Rossiyani poytaxtlari kirgan.

YaIMni har yili 6%ga o'sishini Hindiston va Xitoyi yirik shaharlari ko'rsatishi mumkin, hozircha kamtar ko'rsatkichlarga ega bo'lsa ham. 2011 va 2025 davr mobaynida rivojlangan va rivojlanayotgan iqtisodiyotli shaharlarni YaIMsini o'sishini bashorat qiladigan bo'lsak, iqtisodiyotni o'sish templarida keskin farqni ko'rish mumkin bo'ladi. Masalan, Shanxay, Pekin va Mumbaydek shaharlar bashoratga ko'ra, yiliga 6-7%ga o'sadi, Nyu-York, Tokio, Chikago va London kabi shaharlar esa yiliga bor yo'gi 2%ga o'sishi mumkin”—deb hisoblaydi janob Xoksvort.

U yoki bu shaharni YaImni yuqori darajasi aholini soni bilan har doim ham to'g'ri kelmaydi. Masalan, jahonni eng yirik shaharlari 5taligiga kiruvchi Mumbay

bu reytingda bor yo'g'I 29-o'rinni egallagan. Shunga qaramay, shaharga yuqori o'sish templarini ushlab turishga nafaqat sanoat va xizmat ko'rsatishdagi taqmoqlarning rivojlanishi, balki aholi sonini o'sishi ham yordam beradi. "Xitoy va Hindistonni yirik shaharlari shu mamlakatlarning iqtisodiy o'sishini lokomotivi hisoblanadi, chunki aynan ularda asosiy ishlab chiqarish joylashgan va aynan shu yerda aholi o'sishini eng yuqori templari kuzatiladi, umuman olganda aynan ular qishloq mintaqalari va mamlakatni butun iqtisodiyotini o'zini orqasidan tortadi"- deb hisoblaydi janob Xoksvort.

PwS mutaxassislarini hisob-kitoblariga ko'ra, o'tgan yili sayyoramizning eng yirik yuzta shaharlari jahon YaIm sini 30%ini ta'minlagan, hattoki ba'zi bir megapolislarni alohida olingan moliyaviy ko'rsatkichlari butun bir mamlakatlarning YaIMsidan oshgan. Tokio va Nyu-Yorkki YaIM(1479mlrd va 1406mlrd dollar)si butun bir Kanada, Ispaniya va hattoki Meksika analogik ko'rsatkichlari bilan solishtirilishi mumkin.

Dunyoning eng boy megapolislari – AQShda, eng kambag'allari – Misr va Hindistonda joylashgan.amerikaning Brookings Institutini tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatdiki, Konnektikutdagi Xartford shahrini butun dunyodagi eng boy shahar deb tan olishdi. Eng kambag'al megapolislar Afrika va Osiyoda – bu Misr poytaxti Qohira, keyin Mumbai va Aleksandriya.

Brookings institute(Brookings Institute) AQShni eng muhim analitik markazlaridan biri hisoblanib, u jahon iqtisodiyoti, tashqi siyosat va umumiy fanlarga mutaxassislashtirilgan.

4-jadval

Dunyodagi eng boy shaharlar o'ntaligi

Shahar	Davlat	YaIMni aholi jon boshiga
Xartford	AQSh	75086
Oslo	Norvegiya	74057

San-Xose	AQSh	68141
Abu-Dabi	BAA	63859
Bridjport	AQSh	63555
Tsyurix	Shvetsariya	63236
Vashington	AQSh	62943
Stokgolm	Shvetsiya	61458
Boston	AQSh	60074
San-Fransisko	AQSh	58783

Manba: Brookings Institute

II-BOB. XXRDA MEGAPOLISLARNI VUJUDGA KELISHI VA ULARNI TASHKIL TOPISHIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

2.1. Shanxayni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

XXRda urbanizatsiya jarayonining hozirgi zamonaviy bosqichi ko’pgina olimlar tomonidan “urbanistik inqilob” sifatida tavsiflanadi, bu esa hodisaning misli ko’rilmagan miqyoslari bilan bog’liqdir. 2007-yilda jahondagi shaharlar aholisi soni qishloqlar aholisi sonidan o’zib ketdi. 8 yil o’tgach, ya’ni 2015 yilga

kelib, an'anaviy qishloq Xitoyi ham "shahar" mamlakatiga aylanishi lozim: 2015 yilga kelib shahar aholisi 700 mln. Kishiga yetibb, qishloqlar aholisi sonidan ortib ketishi kerak. Shaharliklar soni jahondagi barcha mamlakatlar, shu jumladan Hindistonning ushbu ko'rsatkichidan sezilarli darajada o'zib ketadi.

XXR qurilish vazirining o'rinbosari Tsi Tszi bergan ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 656ta shahar va 20 mingga yaqin shahar tipidagi qishloqlar mavjud.

So'nggi o'n yillikda yirik shaharlarni shiddatli o'sishini ta'minlovchi asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- **Iqtisodiy omillar**

- iqtisodiyot, birinchi navbatda, sanoatning barqaror yuqori o'sish sur'atlari, Xitoyning "jahon fabrikasi"ga aylanishi. Zamonaviylashish, sanoatlashish shaharlarning shiddatli kengayishi bilan kuzatilgan;
- eng yangi texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalardan foydalanishning ortishi shaharlarda, eng avvalo, yirik va eng yirik shaharlarda yangi ishchi o'rinlarining dinamik yaratilishini shart qilib qo'ydi:
- iqtisodiy faollikning konsentratsiyalashish imkoniyatlarini ta'minlaydigan transport infratuzilmasining shiddatli rivojlanishi.

- **Ijtimoiy omillar**

- qishloq joylariga nisbatan shaharlarda aholining yanada ko'proq daromadlari, shaharlarda yanada yuqori turmush darajasi, qishloq joylaridan shaharlarga bo'ladigan migratsiya oqimlarining o'sishini rag'batlantiradi;
- shaharlar iqtisodiyoti tuzilmasining o'zgarishi: xizmatlar sohasi, shu jumladan, ta'lim berish va hokazolarning shiddatli taraqqiyoti qishloq joylaridagi yoshlarni o'ziga jalb etmoqda.

- **Migratsiya va demografik omillar**

- ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda qoloqlik fonida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini o'sishi, qishloqda ortiqcha ishchi kuchining ortib borishi ko'p

sonly dehqonlarning shaharlarga ko'chishiga olib keldi;

- shaharliklarga xos bo'lgan tabiiy o'sish kamaygan vaqtda tug'ilishni cheklashning muvaffaqiyatli siyosati hisobiga umuman olganda shaharlarda tabiiy o'sish darajasi unchalik kamaymaydi, chunki u qishloq joylaridan kelgan migrantlarning yanada yuqori darajadagi tug'ilishi hisobiga qoplanadi.

- **Ma'muriy omillar**

- Shaharlarning chegaralarini ularning tarkibiga shahar yuridiksiyasi ostiga tushadigan qo'shni qishloq uyezdlarining qo'shilishi hisobiga kengayishi; shaharlarning qishloq hududlariga diffuziyalashishi. Masalan, Pekin rayoniga maydoni 17,1 ming km² bo'lgan hudud, Guanchjouga – 11ming km², Shanxayga – 5,8 ming km² bo'lgan hudud kiradi. Ular mos ravishda shaharlar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga safarbar etilgan 6, 9 va 10 ta qishloq uyezdlarini o'z ichiga oladi.
- “Qishloq urbanizatsiyasi”—qishloq aholi punktlari maqomining o'zgarishi bo'lib, ularda qishloq-oqsoqol sanoati taraqqiy topdi—“hukumat posyolkalari” yaratildi.

- **Tashqi omillar**

- Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan shaharlarning, shu jumladan, “global shahar”—Shanxay, maqsadga muvofiq shakllanishi;
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yirik shaharlarda to'planishi, u yerda transmilliy korporatsiyalar filiallari va mintaqaviy bo'linmalarning joylashtirilishi, bu esa urbanizatsiyaning o'sishini rag'batlantiradi;
- Kichik shaharlar va posyolkalarda eksport ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, bu esa mazkur aholi punktlarining kengayishiga olib keladi.

Shahar aholisining sezilarli qismi to'plangan yirik shaharlardan farqli ravishda, yaqin vaqtlarga qadar iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun yetarli vositalarga ega bo'lmagan o'rta va asosan kichik shaharlar keskin o'sgan.

Ko'plab xitoylik siyosatchilar va ekspertlar posyolkalar, kichik, o'rta va katta shaharlarning parallel taraqqiyoti tarafdorlari bo'lishgan. Mazkur shahar uyushmalari turlarining har biri yuzlab million dehqonlarning qishloq hayotidan shahar hayot tarziga o'tishida o'ziga xos rol o'ynashga e'tirof etilgan. Katta va o'rta shaharlar capital talab qiluvchi va texnika qiluvchi tarmoqlar va xizmatlar sohasining rivojlanishi uchun eng yaxshi imkoniyatlarni ta'minlashga qodirdirlar. Ular qishloq joylaridan ko'p sonly vaqtincha mavsumiy migrantlarni jalb eta olishadi. Kichik shahar va posyolkalar esa qishloqlardan ko'chib keluvchilarni ish o'rinlari va yanada arzonroq va doimiy yashash joylari bilan kafolatlagan holda, ko'p mehnat talab qiluvchi ishlab chiqarishlarning taraqqiyoti uchun imkoniyat beradilar.

Aynan kichik shaharlar an'anaviy tovarlarni eksportga yo'naltiruvchi asosiy ta'minotchilar bo'lib xizmat qiladilar. Taxmin qilinishicha, 2020 yilga kelib, 200-300 mln. kishi kichik shaharlar va posyolkalarda joylashsalar, qolgan 500-600 mln. kishi har birida 2-3 mln kishi istiqomat qiladigan 200-300ta shaharlarda istiqomat qiladi.

Shahar aholisi soni va urbanizatsiya darajasining yaqin kelajakda o'sishining asosiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- qishloq aholisining shaharlarga migratsiyasi (turli baholarga ko'ra, 200-300 mln. kishini tashkil etadi);
- qishloq sanoatining rivojlanishi hisobiga qishloq aholi punktlarining shahar tipidagi posyolkalarga aylanishi;
- shaharlar ma'muriy chegaralarining ularga qo'shni aholi punktlari va qishloq uyezdlarining qo'shiishi orqali kengayishi, suburbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi;
- foydali qazilmalarining yangi makonlarining o'zlashtirilishi munsubati bilan, eng avvalo, ichki hududlarda yangi shahar aholi punktlarining qurilishi.

Xitoyning hozirgi zamon iqtisodiy va urbanistik taraqqiyotining asosiy

yo'nalishlaridan biri uchta yirik megapolislar – Yantszi va Chutszyan daryolari deltalarida shaharlar klasterlari hamda Pekin poytaxt megapolisini shakllantirish hisoblanadi. Xitoy rasmiy shaxslari tomonidan ta'kidlanishicha, integratsiya jarayoni megapolislarni shakllantirish jarayonlarining asosini tashkil etadi. Xitoylik mutaxassislarining fikricha, jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, iqtisodiy taraqqiyot muayyan bosqichda nafaqat ayrim shaharlarning, balki birlari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan shaharlarning yirik guruhlarini, ya'ni megapolislarning yaratilishini talab qiladi. Megapolislarni shakllantirish to'g'risidagi qarorlar va tegishli dasturlar davlat darajasida qabul qilinsa, loyihalarning realizatsiyasi esa, birinchi navbatda, mahalliy hukumatlar tomonidan amalga oshiriladi. Megapolislarni shakllantirish jarayoni muayyan dualizm bilan tavsiflanadi: bir tomondan, bu bozor iqtisodiyoti talablari oqibatida kelib chiqqan obyektiv jarayon bo'lsa, boshqa tomondan, u davlat organlari tomonidan rejalashtiriladi va nazorat qilinadi.

Xitoy Xalq Respublikasida megapolislarni shakllantirishning asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- miqyos samarasi va iqtisodiy faoliyat konsentratsiyasidan foydalangan holda, urbanizatsiyalashgan hududning xo'jalik taraqqiyoti faollashtirish va uning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati;
- turmush darajasi va iste'mol talabi hajmini oshirish;
- yuqori tezlikdagi avtomobil va emir yo'l magistrallari tarmoqlarining qurilishi natijasida ishchi kuchlari harakatchanligining o'sishi hisobiga ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish;
- shaharlar klasterlari doirasida shaharlarning funksional ixtisoslashuvi imkoniyatlari;
- shaharliklarning turli guruhlarini manfaatlariga javob beradigan turfa xil shahar muhitining shakllanishi;
- jahon hamjamiyati bilan yanada faol o'zaro munosabatda bo'lish, horijiy

investitsiyalarni jalb etish, tashqi savdo, ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish uchun imkoniyatlar yaratish;

- ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarini(НИОКР) rivojlantirishga yo'naltirilgan hatti-xarakatlarning konsentratsiyasi, eng yangi texnologiyalarni jalb etish;
- qishloq joylaridan kelgan migrantlarni ish bilan joylashtirish borasidagi ijtimoiy muammolarni hal qilish.

Megapolislarni shakllantirish mexanizmlari:

- ma'muriy – megapolis tarkibiga kiradigan turli darajadagi subyektlar hukumatlarining kelishilgan hatti-harakatlari yo'li bilan;
- iqtisodiy – provinsial mintaqaviy proteksionizmdan voz kechgan holda, mahsulotlarning yagona bozorini shakllantirish yo'li bilan;
- infratuzilmaviy – megapolislar aholisining yuqori harakatchanligini ta'minlaydigan tezyurar magistrallarning qurilishi bilan;
- preferentsial – iqtisodiy taraqqiyotning tezlashishini ta'inlaydigan horijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay muhitni shakllantirish yo'li bilan.
- axborot – shaharlarning butun klaksteri uchun yagona axborot bazasini shakllantirish yo'li bilan.

XXRda megapolislarni shakllantirish xususiyatlaiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- bozor omillarini hisobga olishda megapolislarni shakllantirishning rejali xarakteri;
- megapolislarni shakllantirish bo'yicha Xitoy markaziy rahbariyatining maqsadga yo'naltirilgan hatti-harakatlari, shu jumladan mahalliy tashabbularni qo'llab-quvvatlash, milliy byudjetdan kapital qo'yilmalarini ajratish, yagona axborot bazasini yaratish;
- uchta megapolislarni Xitoy iqtisodiy taraqqiyotining uchta asosiy markazlari sifatida bir vaqtda shakllantirish;

- tashqi omillarning muhim roli: to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar, tashqi savdo faoliyatining konsentratsiyalshuvi.

Yantszi daryosining havzasi, Chjutszayan daryosining havzasi va Pekin-Boxayvan rayoni kabi uchta megapolislarning shakllanishi hozirgi zamonaviy bosqichda Xitoy urbanizatsiya siyosatining muhim elementi hisoblanadi. Xitoy rahbariyati tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar mazkur megapolislarning tizimli taraqqiyotiga yordam beradi. Shiddatli urbanizatsiya Xitoy shaharlarining tashqi qiyofasini tubdan o'zgartiradi, shahar muhiti yanada differentsiallasadi, turli guruhdagi aholi manfaatlariga qaratiladi. Markaziy hokimiyat va mahalliy hokimiyat manfaatlarini muvofiqlashtirishga bo'lgan hatti-xarakatlar shaharlarni rejalashtirishning ko'p darajali, ierarxik qurilgan tizimining shakllanishini shart qilib qo'ydi. Shahar hukumatlari shahar muhitining tuzilishi va boshqa chora-tadbirlar yo'li bilan shahar aholisi tuzilmasini tartibga soladi. Xitoy rahbariyatining o'ziga xos vazifasi o'zining "jahon shahri"ni shakllantirish bo'lib, uning roli Shanxayga berildi.

Xitoy Buyuk tekisligiga Yantszi daryosi Tinch okeaniga tushadi, shu yerda gigant megapolis Shanxay-Nankin-Xanchjou dunyodagi eng yirik dengiz portlari bilan yonma-yon joylashgan. Bu yerda Xitoy demografik polyusi joylashgan, 200mln aholiga ega, ish va iqtisodiyot markazi Shanxay, Osmonosti mamlakatining sobiq poytaxtlari – Nankin va Xanchjou. Bu yerdagi mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalarining 1/3 qismi va barcha chet el investitsiyalarining j qismi joylashgan. Xitoyni iqtisodiy poytaxti Shanxay bilan bu megapolis yana bir xiyot giganti Marjon daryosi havzasiga bas keldi. O'zini ichiga Gonkong, Guanchjou va Shenjenni sanoati qudratli bilan Gonkongni moliya qudrati birlasadi. Shanxay va Chjenzyan provinsiyasi Xuanchjou bilan Marjon daryosi havzasi megapolislari bilan Xitoyni eng rivojlangan iqtisodiy intaqlari hisoblanadi.

XXRni "Iqtisodiy poytaxti" – Shanxay – mamlakatning yirik sanoat, savdo, transport, moliya va madaniyat markazidir. Shanxay Yantszi daryosi havzasida,

Sharqiy-Xitoy dengizining bo'yida joylashgan bo'lib, Tszyansin va Chjenzyan provinsiyalari bilan chegaradosh. Megapolis maydoni – 7037,5 kv.km, bu Xitoy hududini 0,01 %i deganidir. Shanxay(ma'nosi “dengi ustida” 25mln aholi, 2011) Xitoyni nafaqat iqtisodiy poytaxti, balki Osiyo Tinchokeani mintaqasida yirik va rivojlangan texnologik va iqtisodiy jahon markazlaridan biri hisoblanadi. Shanxay shahri – eng katta megapolisidir. Nyu-York va Londondan so'ng jahonni uchinchi moliya markazi hisoblanadi. Xitoyni muhim moliya va madaniyat markazi, yukaylanmasi bo'yicha jahonni yirik dengiz portlaridan biri va superzamonaviy megapolisidir. Shanxay YaIMsi Ukraina YaIMsidan yuqoriroq. Shanxay Gonkong bilan moliya sohasida yetakchilikka kurash olib borib, Shanxay fond birjasini barqaror rivojlantirmoqda.

Shanxay – markazga bo'ysunuvchi 4ta shahardan bittasi , Pekin, Chuntzin va Tyanzin bilan bir qatorda turadi. Shahar aholisidan tashqari shaharda 5 mln migrantlar vaqtinchalik ro'yxatda o'tgan holda yashaydi.

Dunyodagi eng tezyurar temiryo'l bo'lmish Pekin-Shanxay(1318km) rasman 2011-yil iyunda ochildi, 33km soatiga o'rta tezlik bilan 4soatni tashkil etib, yo'lga ketadigan vaqtni 3 martaga kamaytirdi.

Shanxay tarixi IV asrga kelib taqalib, dengiz bo'yida baliqchilik qishlog'i paydo bo'lishi bilan boshlanadi ba'zi bir o'zgarishlar ancha keyinroq, Yantzi havzasida xitoy dengiz floti uchun kemalar qurilishi boshlangandan keyin ro'y berdi. Tarixan Shanxay kontinental Xitoyni eng g'arblashgan shahri hisoblanadi. Birinchi opium urushidan so'ng va 1842-yilda Nankin bitimi imzolanishi bilan Shanxay Xitoyni boshqa portlari bilan bir atorda tashqi savdo uchun ochildi. Keying yillarda G'arb derjavalari XX asrning 30yy oxirigacha Sobiq hududid y huquqlarini olishdi. Bu yerda angliyaliklar o'rtoqlashishdi va 1863-yilda xitoy boshqaruvidan tashqarida amerikaliklar bilan xalqaro rayon (kontsessiya)ni tashkil etishdi. Bundan tashqari, Fransiya o'zini kontsessiyasini mustaqil saqlab qoldi.

1894-95 yydagi yapon-xitoy urushidan so'ng, Tokio Shanxayda zavodlar

qurib, shahar sanoatini jo'shqin rivojlanishiga asos yaratib berdi. Xitoy Respublikasida Shanxay Sharqiy Osiyoni yirik moliya markaziga aylanadi va 20yy oxirida markazga bo'ysunuvchi maxsus shahar nomini oladi.

Shanxay XIX asrning o'rtalarida opium, ipak va qullarni ishlatish hisobiga rivojlandi. XX asrni boshlarida Shanxay iqtisodiy, moliyaviy poytaxtga, Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoyni dengiz darvozasiga aylandi. Shanxay doimo liberalism va nisbatan yuqori hayot tarsi bilan ajralib turardi. Tekstil sanoatining markazi sifatida Shanxay nafaqat Xitoyda birinchi o'rinni egalladi, balki dunyodagi eng yiriklardan biri ham edi. Bundan tashqari, u mamlakatning eng katta shahriga ham aylandi – XIX asrdayoq millioner-shaharlar darajasiga yetgan, o'sha davrdagi Osiyodagi 3ta yirik shaharlardan biri bo'lgan. Lekin bunga qaramay Shanxayda qonunbuzarliklar, ekpluatatsiya va jinoyat gullab-yashnar edi. Bu yerda jamiyatning turli qatlamlari mavjud bo'lib: boy yevropa didiga rayonlar bilan birga, kambag'al zerikarli rayonlar ham mavjud edi. XX asrning 20-30yyda o'zining birinchi "oltin asri"ni boshidan o'tkazdi. Xorij investitsiyalarini jalb etish bo'yicha jahonda yetakchilarga aylandi. Shanxayni Sharqni Pariji, firibgarlar, o'yinchilar, dengizchilar va opium savdogarlari poytaxti deb atashgan. Bu "aralash qozon"da Sharq va G'arb chegarasida mahalliy sotsialistik va kommunistik g'oyalar tug'ilib, inqilobchilar qaroqchilarga, qaroqchilar inqilobchilarga aylanar edilar. Shanxay – inqilob beshigi va Xitoy Kommunistik partiyasining vatanidir.

20yy boshida shaharda 1,5 mln aholi mavjud bo'lib, ular qatorida 14ming yaponlar, 6ming angliyaliklar, 3ming ruslar, 1,5ming amerikaliklar va mingga yaqin fransuzlar istiqomat qilganlar.

Hukumat tepasiga kommunistlarni kelishi bilan giyohvandlikka qarshi kurashda muvaffaqiyatga erishldi, lekin chet el investitsiyalaridan ajrab qolgan shanxay iqtisodi tushkunlika uchradi. Bozor islohotlari va ochiq iqtisodiyot siyosati e'lon qilingandan so'ng Shanxay o'zining iqtisodiy va moliyaviy qudratini tezlik bilan qaytarib oldi. XXI asr boshida qayta Xitoyni iqtisodiy poytaxti,

Sharqiy Osiyodagi yirik va jahon shaharlaridan biriga aylandi.

Zamonaviy Shanxay o'zgargan holda, o'zini bosh funksiyalarini saqlab qoldi. Shanxay Xitoyni asosiy dengiz porti bo'lib qolmoqda. Yukaylanmasi hajmi bo'yicha(450mln tonna) u nafaqat Xitoyda, balki butun dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Unga 160dan ortiq mamlaktlarni kemalari kiradi.

Shanxay Xitoy asosiy sanoat markazi bo'lib qolmoqda: unda 13mindta korxonalar mavjud bo'lib, mamlakat sanoat mahsulotlarining 7%ini beradi. 1949-yildan so'ng shaharda nafaqat sanoat korxonalarining ko'lami nafaqat oshdi, balki tuzilishi ham o'zgardi. Birinchi o'ringa turli xil mashinasozlik(stanoklar, avtomobillar, dengiz kemalari, elektronik jihozlar va boshqalar) chiqdi. "Port" sanoatining: metallurgiya, neftqaytaishlash kabi tarmoqlari paydo bo'ldi. Shanxay mamlakatda eng katta kimyo sanoati markaziga(mineral o'g'it, kimyo tolasi, farmatsevtika) aylandi. Tekstil sanoatining ahamiyati tushgan bo'lsada, uni mahsulotlarini ishlab chiqarish absolyut o'lchami bilan Shanxay nafaqat boshqa tekstil markazlari, balki butun bir mamlakatlar bilan raqobatlasha oladi.

Oxirgi vaqtda, Shanxayda e'tibor avvalambor, eksportga yo'naltirilgan ilmiy ishlab chiqarishga qaratilgan. Bu yerda Minxan eksport-qaytaishlov zonasi, Xuntsyao tashqisavdo zonasi, Tsaoxetzsin yuqori texnologiya zonasi tashkil etilgan. 1990-yilda Xuanpu daryosining bo'yida, Shanxayni sharqiy qismida joylashgan yangi eksport va texnologik rivojlanish zonasi Pudun e'lon qilingan bo'lib, unga ham chet el sarmoyasini jalb etish uchun maxsus huquqlar va lgotalar berilgan.

Keying rivojlanishni Shanxayni savdo-transport funksiyasi ham olgan. Birinchidan, (asosan birinchi besh yillikda) u xitoy iqtisodiyotini o'sishida yetakchi vazifani bajaradi va o'zini mahsulotlarini mamlakatni boshqa hududlariga yetkazib berar edi. Ikkinchidan, vaqt o'tgan sari uni sanoati tobora eksportga yo'naltirila boshladi: umuman olganda Shanxay XXR tashqi savdosini j qismini ta'minlaydi.

Shanxay uchun mutlaqo yangi noishlab chiqarish tarmog'ini rivojlanishi hisoblanadi. Xalq boshqaruvi yillari davomida 45ta Oliy Ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlariga ega juda yirik madaniyat va fan markazlariga aylandi. Ularda 800mingga yaqin mutaxassislar ishlaydi, shular qatorida ko'pgina old olimlar mikroelektronika, biotexnologiya, robototexnika, sun'iy materiallar, optika, okeanologiya kabi tarmoqlarda ishlaydi. Shanxay boshqacha qilib aytganda, eng yuqori malakaga ega ilmiy-texnik kuchlar inkubatoriga aylandi. Uni ichki va xalqaro moliya markazi sifatidagi o'rni o'sdi.

Oxirgi vaqtda Shanxayni "tashrif qog'ozi" sifatida qishloq xo'jaligi va botqoqliklarni o'rnida paydo bo'lgan Pudun yangi rayoni bo'lib kelmoqda. U yuqori texnologiya va nou-xou sohasida yetakchi bo'lib kelmoqda.

1990-yy oxirida Pudunda erkin savdo zonalari, sanoat,savdo, ilmiy mytaxassislik rayonlari, konteynr terminalili dengiz portlari faoliyat ko'rsatadi. Bu rayon sanoati mikroelektronika, biofarmatsevtika, informatsion texnologiyalarga mutaxassislashtirilgan. Pudunda horijliklar ishtirokida 4000ta korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Bu yerda bir necha transmilliy korporatsiyalarning vakolatxonlari va shtab-kvartiralari joylashgan. Bu yerga sarmoya Syangan va 50dan ortiq mamlakatlardan kelib tushadi. 2010-yilga kelib Pudunni yalpi mahsuloti 20mlrd dollardan oshdi(bu 1989-yilda butun Shanxay bergandan ko'proq). Aytish mumkinki, hozirda aynan Pudun Shanxayni nafaqat Xitoyni, balki butun Osiyo-Tinchokeani mintaqasida yirik sanoat(yana moliya va savdo) markazlaridan biriga aylanishiga turtki bo'lmoqda.

Shanxayni iqtisodiy o'sishidan tashqari, uni aholisi ham o'smoqda. 1950-yilda Shanxay aglomeratsiyasi 5,3mln aholini sanab otgandi, 1970yyda-11,2mln, 1990yyda-13,3mln, 2000yilda-4,2mln, 2005yilda-17,4mln, 2011yilda-25mln. 1994-yilgi ma'muriy islohotlarga ko'ra shahar hududi qo'shni qishloq uyezdlarini qo'shilishi hisobiga 6,3ming kv.kmga kattalashtirilgan.

XX va XXI asr bo'sag'asida Shanxayda 380, 400 va 460 m balandlikdagi

osmono'par binolar qurilgan(Jahon moliya markazi) va uni ko'pincha "Osiyo Manxettini" deb ham atashadi.

2.2.Shanxayni megapolis bo'lib rivojlanishidagi istiqbol va muammolar.

Shaharlarning kattalashuvi, megapolislar, shahar aglomeratsiyalari atrof-muhitga juda katta salbiy ta'sir ko'ratadi. Shahardagi joylashgan sanoat korxonalaridan hamda transportdan chiqayotgan gazlar atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi. Shaharlarda sanoat korxonalari, kommunal xo'jaigidan chiqayotgan ishlatilgan suvlar oqar suvlarning ifloslanishiga olib keladi. Katta shaharlarda korxonalar, transport vositalari shovqini qishloq joylariga nisbatan ancha katta. Bu esa shahar aholisining eshitish organlarining tezda ishdan chiqishiga olib keladi. Shu sababli dunyoda shaharlarning haddan tashqari kattalasib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Aholisi 300-400 minggacha yetuvchi o'rtacha shaharlar eng optimal shaharlar hisoblanadi. Shahar havosi ifloslanishining oldini olish, ichimlik suvi ifloslanishini oldini olish uchun shahar qurilishida tabiat muhofazasiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Dunyoning eng yirik shaharlari bo'lgan Nyu-York, Tokio, Parij, London osmonida sanoat va avtotransport chiqindilaridan iborat sun'iy bulutni har doim ko'rish mumkin. Birgina Nyu-York shahrida har kuni atmosfera 3200 tonna oltingugurt birikmalari, 280 tonna sanoat change, 4200 tonna uglerod ko'tariladi. Sotsialistik mamlakatlarda geografik muhitning bunday buzilishi va ifloslanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bu muammolarning barchasi Shanxay megapolisini chetlab o'tmagan. Shanxay ham hozirgi vaqtda shunday muammolarga duch kelib, uni yechishda bir qator choralarni qo'llamoqda.

Zamonaviy megapolis–shaharlarni boshqarish muammosi bu boradagi jahon

tajribasi va doimo innovatsion hal etish yo'llarini talab etadi.

Bu haqda 2011-yil dekabrda Markaziy Osiyo muhbirlarini xitoy megapolisi Shanxaydagi press-turida aytib o'tilgan edi.

Horij ishlari bo'yicha Shanxayni Munitsipal hukumat Konselariya boshlig'I o'rinbosari Fu Dzixun OAV vakillari bilan uchrashuvida aytib o'tdiki, oxirgi 15-20 yil ichida megapolisga aylangan Shanxayda, megapolisni boshqarish bo'yicha yetarlicha tajriba mavjud emas. Haqiqatdan esa, Shanxay sayyoramizning eng zamonaviy megapolislaridan biridir.

Aynan Shanxayda hozirgi kunda balandligi boyicha 2-o'rinda turuvchi bino – Global moliya markazi(balandligi 492m bo'lgan) joylashgan. Unga kam kelmaydigan teleminora ham mavjud, bu gigantni oldida yangi osmono'par binoni qurilishi ketib, u Dubaydagi binodan birinchilikni olish maqsadidadir.

Baland binolar – megapolisni tashqi ko'rinishidir. Asosiysi esa, hokimiyat vakili aytib o'tganidek – megapolisni rivojlanishi bilan bir qatorda aholi yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

Bu vazifa osonlardan emas. Birinchi bilan qo'shganda keyinchalik rivojlanishi bilan bog'liq. Bu ma'noda Shanxay boshqa mamlakatlar tajribasiga juda ishongan, ular o'z tajribalarini eng martabali ko'rgazma tadbirlaridan biri bo'lgan – 2010-yili Shanxayda bo'lib o'tgan xalqaro EXPO ko'rgazmasida bo'lishishdi. Hatto uni shiori etib tayinlangan so'zlar:"Hayot uchun eng yaxshi shahar".

Hozigi kunda megapolislar rivojlanishi muammosi, xohlasa xohlamasa ko'pgina mamlakatlarga taalluqli bo'lib kelmoqda, shular qatorida markaziyosiyodagilarni ham. Megapolisga aylanishni boshlayotgan shaharga eski chegaralari tor bo'la boshlaydi, bir tekis qurilish va o'sayotgan sanoat korxonalari ko'pgina muammolarni keltirib chiqaradi. Shanxay misolida aytib o'tiladigan bo'lsa, ular – ijtimoiy va ekologik.

“Hozirgi kunda Shanxayda 23 mln aholi istiqomat qiladi, doimiy va

migratsiya qiluvchi aholi. Biz uchun shaharni samarali rivojlanishi muhimligidek, uni boylar va kambag'allar o'rtasidagi farqni kamaytirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat ham shunday muhimdir. Bu katta shaharni tashkil etuvchi iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, biz doimo iqtisodiyot rivojlanishi modelinitransformatsiyasi bilan shug'ullanamiz. Homashyo eksporti rivojlanishda asosiy rol o'ynashini hisobga olaigan bo'lsak, o'ylaymanki, sizlarning mamlakatlaringiz ham shunday vazifa ustida turishmoqda. Biz hammamiz bunday holatni yaxshilashga ko'p urinishlar qilmoqdamiz", – deb ta'kidlab o'tdi Shanxay ma'muriyati vakili.

Migratsion masala haqida gapirganda, aytib o'tildiki, ulkan shahar 6500kv.km maydonga ega va 23 mln aholisi bilan so'zsiz, shahar rivojlanishi ko'pgina masalalarni yechishda katta zo'riqishga olib keladi. Boshqa tomondan, Shanxayga ko'chib keluvchilar kerak, chunki shaharda aholi qarishi muammosi mavjud. Shaharni samarali boshqarish, bu yo'nalishda doimo yechimlarni qidirish har kungi rivojlanishida ham doimiy, ham migratsiyaqiluvchi aholi qatnashganiga qaramay. hozirgi kunda Shanxayni yetarli darajada sokin shahar deb nomlashga imkon beradi.

Har kungi shahar rivojlanish masalalarini hokimiyt kelezak uchun innovatsion yechimlarni o'ylab topish va asta-sekin aalga oshirish bilan uzviy bog'laydi.

“Hozirgi vaqtda Shanxayda juda ko'p turli xil texnologiyalar qo'llanmoqda, shular qatorida chetdan kirib keluvchi ham. Bu narsa bizni hamma eng yaxshi va old intilishlarni o'zimizda amalga oshirish intilishimizni ko'rsatadi. Biz Shanxayni intellectual shaharga aylantirishni mo'ljallamoqdamiz, undagi asosiy yo'nalish raqamli texnologiya va internet sohasini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan. Hozirda biz o'zida 3 tarmoqni birlashtiruvchi texnologiyalarni olib kirmoqdamiz – telekommunikatsiya, televideniya va internet. Biz raqamli boshqaruvni olib kirmoqdamiz, uni turli xil darajalarda qo'llaymiz. “O'ylaymanki

bunday talab va vazifalar Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham mavjud bo'lib, bu bizni raqamli davrdagi umumiy tendensiyamizdir”.

Shanxayda yechilmagan muammolar hali ko'p bo'lib, o'sishdagi qiyinchiliklar deb nomlanadi. Ulardan eng asosiysi – aholini ko'payib ketish muammosidir. Bu yerdagi aholi zichligi 40mingdan oshadi, ba'zi bir rayonlarda 1kv.kmga hattoki 160ming kishi to'g'ri keladi.

Aholini ko'payib ketishi bilan transport tiqilishlari to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, shaharda mashinalar ko'pligi shovqin ifloslanishini keltirib chiqaradi. Bu narsa ko'pincha mumkin bo'lgan normalardan o'tib tushadi. Ko'pgina sanoat korxonalari ham shaharni ekologik muhitiga ta'sir ko'rsatadi.

Shanxayni rivojlanish rejasi istiqbollari shahardagi bu o'tkir muammolarni yechishni taqozo etadi.

2.3. O'zbekistonda megapolislarni rivojlanishi

Urbanizatsiya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida O'zbekiston respublikasi uchun ham hos. U shaharlar soni, eng avvalo, yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining, qishloq- shahar hamda tebranma migratsiyaning rivojlanishida, qishloq joylarga shahar turmush tarzining kirib borishida o'z aksini topadi. Urbanizatsiyaning eng oddiy ko'rsatkichi shahar aholisining mamlakat yoki boshqa hudud jamo aholisidagi hissasi hisoblanadi.

O'zbekiston jahonning ilk urbanizatsiya o'choqlaridan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz, Qarshi, Shahrisabz kabi shaharlar 2500-3000 yil va undan ko'proq tarixga ega. Respublikamizning turli hududlaridagi shahar qoldiqlari (Afrosiyob, Axxi, Pop, Nasaf, Kesh, Paykent va b.) ham bu yerda urbanizatsiyaning qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi.

Hozirgi kunda respublikamizda 120 shahar va 113 shaharcha (shahar tipidagi posyolkalar) mavjud bo'lib, ularda 9442 ming kishi yoki mamlakat jami

aholisining 36,3 %i yashaydi. Shahar va shaharchalar turli omillar-qazilma boyliklardan foydalanish, yangi yerlarni o'zlashtirish, irrigatsiya inshootlari va transport yo'llarini qurish, sanoat korxonlari hamda ma'muriy vazifalarni(funksiyalarni) bajarish asosida vujudga kelgan.

Ularning soni ayniqsa 1973-1986 yillarda tez ko'paygan. Bunga 1972 yilda O'zbekistonda aholi manzilgohlariga shahar maqomini berish uchun zarur bo'lgan demografik me'yor, ya'ni aholi sonining 10 mingdan 7 ming kishiga tushirilishiga sabab bo'ldi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shaharlar sonining bunday tez sur'atda ko'payishi haqiqiy urbanizatsiya emas, ko'proq "soxta" urbanizatsiyaga olib keldi. Chunki, aksariyat "yangi shaharlarro'zlarining bajaradigan vazifalari, qurilishi va demografik holati jihatidan odiy qishloqlardan katta farq qilmas edi.

Hozirgi Toshkent viloyatida 34ta, Qoraqalpog'istonda 28ta, Samarqand viloyatida 23ta shahar va shaharchalar mavjud. Ularning eng kam soni Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida – 10tadan, Buxoro va Navoiy viloyatlarida 13tadan, Surxandaryo va Jizzaxda 15tadan, Andijon va Qashqadaryoda 16tadan, Namangan va Farg'onada 19tadan shahar va shaharchalar bor.

Urbanizatsiya faqatgina shahar yoki shaharchalar umumiy soni bilangina emas, balki ko'proq katta shaharlar to'rining rivojlanganligi bilan belgilanadi. O'zbekistonda, 2008 yil ma'lumotlariga ko'ra, 17ta yirik shaharlar bor. Ularning eng kattasi – Toshkentda 2127 ming kishi yashasa, eng kichigi-Olmaliqda 116 ming kishi yashaydi.

Umuman, yirik shaharlarga respublika shahar aholisining 60%ga yaqini to'g'ri keladi. Ulardan keying guruhni o'rta shaharlar-Shahrisabz, Bekobod, Yangiyo'l, Kattaqo'rg'on, Xo'jayli, Beruniy, Xiva, To'tko'l, Denov, Chust, Shahrixon, Koson, Kogon, Zarafshon kabilar tashkil etadi (jami 19ta).

Yirik shaharlar negizida vning murakkab hududiy tizimi- shahar aglomeratsiyaalri vujudga kelgan bo'lib, ular urbanizatsiya rivojlanishining muhim

ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Masalan, Toshkent aglomeratsiyasi 30ga yaqin shahar va shaharchalarni birlashtiradi. Shuningdek, Farg'ona-Marg'ilon, Samarqand, Namangan, Buxoro, Andijon, Nukus va boshqa aglomeratsiyalar ham shakllanmoqda.

O'zbekistonda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichi 1984 yilda 42 %dan ortiqroq edi. Keying yillarda bu ko'rsatkich muntazam pasayib bormoqda. Hozirgi holat nisbatan Toshkent va Navoiy viloyatlari hamda Qoraqalpog'istonda yuqori, Xorazm va Surxandaryoda esa eng past.

Urbanizatsiya darajasining qisqrib borishiga qishloq aholisining shaharliklarga nisbatan tezroq ko'payish, shaharlarda (ayniqsa, sanoat markazlarida) tashqi migratsiyaning kuchayishi, yangi shaharlarning vujudga kelmasligi sabab bo'ldi. Ammo, qishloq joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, bu yerda infratuzilma va sanoat korxonalarining, dam olish maskanlarining tashkil etilishi, qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan iqtisodiyotni tarmoqlarida tadbirkorlikning rivojlanib borishi urbanizatsiyaning real holatini ifodalab beradi. Ushbu o'zgarishlar hamda shaharlarning rivojlanishi asosida respublikamizda yaqin yillarda urbanizatsiyaning umumiy ko'rsatkichini qisqarib borishi to'xtaydi va u kelajakda yana ortib boradi.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida jamiyat hayotining barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli va ko'p qirrali islohotlar mamlakatimiz rivojida va iqtisodiyot sohasini yuksaltirishdek muhim vazifani tadbiq etishda mustahkam zamin bo'lmoqda. O'zbekistondagi siyosiy va iqtisodiy barqarorlik milliy iqtisodiyotni, horijlik sheriklar bilan amaliy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Toshkentda sanoatning asosiy tarmoqlari jadal rivojlantirilib, ilg'or, xususan, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini qayta ixtisoslashtirish, yangilarini barpo etish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda, raqobatbardosh , eksportbop va import o'rnini bosadigan

mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Bu jarayonning muttasil oshib borayotgani, yangi korxonalar, jumladan horij kapitali ishtirokidagi korxonalar tashkil etilayotgani mamlakatimizda kichik bizne hamda xususiy tadbirkorlik sohasi tobora kengayotganidan dalolat beradi.

Davlatmiz rahbari tomonidan 2008 yil 2 aprel qabul qilingan “Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko’rish va uni o’tkazish to’g’risida”gi qarori bu borada amalga oshirayotgan ezgu ishlarning izchil va bardavom ekanligini tasdiqlaydi. YUNESKO Bosh konferensiyasining 34-sessiysi qaroriga ko’ra, mazkur xalqaro tashkilot poytaxtimizning yubileyi bilan bog’liq tadbirlarda faol ishtirok etadi.

Toshkent shahri O’zbekiston Respublikasining poytaxtidir. U Respublikaning shimolisharqiy qismida, Chirchiq daryosi yaqinida, bundan 2200 yil muqaddam vujudga kelgan.

Hozirgi kunda Toshkent shahri nafaqat O’zbekiston, balki O’rta Osiyodagi eng yirik sanoat, fan va madaniyat markazidir. Ushbu shahar o’zining yuksak ijtimoiy-iqtisodiy, demografik salohiyati hamda mintaqaviy tutgan o’rniga asoslangan holda Toshkent viloyati bilan birgalikda Respublikadagi yetakchi bo’lgan-Toshkent iqtisodiy rayonini shakllantiradi.

Toshkent shahrining qulay geografik o’rni va ayniqsa, muhim transport yo’llari chorrahasida o’rnashganligi uning tarixan vujudga kelishi va rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo’lgan.

Toshkent shahri hissasiga O’zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 16,4 foizi va sanoat mahsulotining 16,9 foizi to’g’ri keladi. Unda Toshkent iqtisodiy rayonining 47,4 foiz aholisi istiqomat qilgani holda, 57,5 foiz yalpi ishki mahsuloti hamda 52,5 foiz sanoat mahsuloti yaratiladi.

Toshkent shahri iqtisodiyoti, eng avvalo mashinasozlik va metallni qayta ishlash, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziqovqat sanoat tarmoqlarining ustuvor rivojlanganligi bilan belgilanadi. Toshkent shahrining yuksak ishlab

chiqarish, ilmiytexnik va infratuzilma salohiyati bu yerda ko'plab qo'shma korxonalarning vujudga kelishi bilan izohlanadi.

2010 yil holatiga ko'ra Toshkent shahri quyidagi 11 ta tumanni o'z ichiga oladi: Uchtepa, Bektemir, Mirzo Ulug'bek, Mirobod, Olmazor, Sirg'ali, Xamza, Chilonzor, Shayhontohur, Yunusobod, Yakkasaroy.

Aholi va mehnat resurslari. Toshkent shahri aholisi, 2010 yil 1 yanvar ma'lumotlari bo'yicha, 2138,5 ming kishidan iborat bo'lib, mos ravishda Respublika va Toshkent iqtisodiy rayoni aholisining 8,5 va 47,4 foizini o'zida mujassam etgan.

Aholisi ko'p millatli. Uning tarkibida o'zbeklar ko'pchilikni tashkil etadi. Bundan tashqari boshqa millatlar qatoriga ruslar, tatarlar, qozoqlar, tojiklar va boshqalarni kiritish mumkin. Aholi ma'muriy tumanlar bo'yicha turlicha taqsimlangan (20jadval). Eng ko'p aholi Yunusobod, Olmazor, Shayhontohur tumanlariga to'g'ri keladi. Jami aholi tarkibida mehnatga yaroqli qismi 1258,7 ming kishidan iborat. Mehnatda bandlar soni esa 1005,2 ming kishiga teng.

5jadval

Toshkent shahri aholisining tumanlar bo'yicha taqsimlanishi (1.01.2010 y.)

№	Shahar va tumanlar	Aholisi, 01.01.2010yil, ming kishi	Har ming kishiga (2009 y.):		
			tug'ilish	o'lim	tabiiy o'sish
	Toshkent shahri	2138,5	14,6	8,4	6,2
	Shu jumladan,				
1	Uchtepa	225,0	16,3	8,2	8,1
2	Bektemir	29,0	15,1	8,4	6,7
3	Mirobod	123,0	14,7	10,3	4,4
4	Mirzo Ulug'bek	248,1	12,3	9,8	2,5
5	Olmazor	279,6	17,1	6,8	10,3

6	Sirg'ali	153,9	15,0	9,8	5,2
7	Xamza	209,2	12,2	9,7	2,5
8	Chilonzor	216,1	12,8	9,3	3,5
9	Shayhontohur	256,1	18,4	6,1	12,3
10	Yunusobod	288,0	13,6	8,3	5,3
11	Yakkasaroy	110,5	11,8	7,9	3,9

Xo'jaligi. Toshkent shahri Respublikada rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi bilan alohida ajralib turadi. Sanoat mahsulotining 2/3 qismiga yaqini og'ir sanoat korxonalarida yaratiladi.

Toshkent shahrining xo'jalik ixtisoslashuvida eng avvalo mashinasozlik va metallni qayta ishlash, xususan qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo, yengil va oziqovqat sanoati tarmoqlari yetakshi rol o'ynaydi.

Hozirgi davrda, Toshkentda 500dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Xorijiy investorlar bilan barpo etilgan 2621ta qo'shma korxona hisobga olingan.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2008 yilda 1999 yilga nisbatan 111,5 foizga o'sgan. Toshkent shahri sanoati tarmoqlar va hududiy tuzilishi hamda rivojlanishiga ko'ra turlisha xususiyatlarga ega. Shahar tumanlari orasida eng ko'p sanoat mahsuloti hajmi bo'yisha Xamza tumani yetakshi o'rinni egallaydi. Undan so'ng M.Ulug'bek, Bektemir, Mirobod tumanlari turadi. Hozirda Toshkent shahri bo'yisha ishlab shiqarilgan sanoat mahsulotining 87,3 foizi nodavlat sektoriga to'g'ri keladi (21jadval).

6jadval

**Toshkent shahri sanoatining tarmoqlar tarkibi
(2010 yil, foizda)**

		Mahsulot ishlab
--	--	-----------------

№	Sanoat tarmoqlari	chiqarish hajmi
1	Metallurgiya	1,5
2	Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	27,9
3	Kimyo	10,2
4	Tsellyulozaqog'oz	3,9
5	qurilish materiallari sanoati	3,7
6	Yengil sanoat	11,4
7	Oziqovqat sanoati	24,3
8	Un, krupa va omuxta yem sanoati	6,8
9	Poligrafiya sanoati	6,1
10	Tibbiyot sanoati	1,4
11	Boshqa sanoat tarmoqlari	2,8
	Toshkent shahri:	100,0

Toshkent shahri sanoat majmui tarkibida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan aloqador korxonalar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu esa, eng avvalo, sobiq O'rta Osiyo respublikalarining qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi bilan chambarchas bog'liq. Jumladan, O'zbekiston og'ir sanoatini to'ng'ich korxonasi Toshkent qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi 1932 yili barpo etildi. Xuddi shu yili to'qimachilik kombinati qurilishi boshlangan. 1941 yili O'zbekiston qishloq xo'jalik mashinasozligi zavodi ishga tushirildi.

7jadval

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tumanlar
bo'yicha taqsimlanishi (2010 yil, foizda)**

№	Tumanlar nomi	Sanoat mahsuloti hajmi	Nodavlat sektorining ulushi
	Toshkent shahri	100,0	87,3
1.	Uchtepa,	2,0	67,7
2.	Bektemir	12,3	94,6
3.	Mirobod	12,4	97,2
4.	Mirzo Ulug'bek	10,9	62,1
5.	Olmazor	4,7	85,0
6.	Sirg'ali	7,5	75,3
7.	Xamza	23,6	96,1
8.	Chilonzor	5,6	90,1
9.	Shayhontohur	5,5	82,0
10.	Yunusobod	6,4	51,8
11.	Yakkasaroy	9,1	93,5

Shahar sanoatining tarmoqlar tarkibi va salohiyatini yuksalishida Ikkinchi Jahon urushi yillarida ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalarining ham roli katta. Bu davrda O'zbekistonga ko'chirilgan yuzdan ortiq sanoat korxonalarining ellikdan ko'prog'i Toshkent shahriga joylashtirilgan. Ular orasida V.Chkalov nomidagi Moskva aviatsiya zavodi, «Rostselmash», «Elektrokabel» korxonalari bor edi.

Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (27,9 foiz) yetakchi o'rinni egallaydi. Uning korxonalari qatoriga «Tashselmash», Toshkent to'qimachilik mashinasozligi, Toshkent traktor zavodi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, Ekskavator, «Pod'emnik», «Kompressor», «Tashgazapparat», Elektr lampalari, agregat zavodlari, «Toshkentkabel», aniq asboblari va o'lchov

apparatlari, elektron texnikasi zavodlari kiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra ikkinshi o'rinni oziqovqat sanoati (24,3 foiz) egallaydi. Uning korxonalari yog'moy kombinati, konserva zavodi, vinoaroq, alkogolsiz ichimliklar zavodlari, tegirmon, go'sht, sut, qandolat va tamaki fabrikalari, non zavodlari va boshqalardan iborat. Ular orasida unkrupa, makaron, non mahsulotlari ishlab shiqaradigan korxonalar salmoqli ulushga ega.

Yengil sanoatning mahsulot ishlab shiqarish hajmiga ko'ra ulushi 11,4 foizga teng bo'lib, mashinasozlik hamda oziqovqat sanoatidan so'ng uchinchi o'rinni egallaydi. Uning korxonalari mahalliy xom ashyo asosida ishlaydi. Yengil sanoatning yirik korxonalariga to'qimachilik kombinati, «qizil tong», «Yulduz» tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmalari, «Malika» trikotaj ishlab shiqarish birlashmasi, «Orzu» sharmgalanteriya ishlab chiqarish birlashmasi, poyabzal korxonalari, kanop fabrikasi va boshqalar kiradi.

Kimyo korxonalarining sanoat mahsuloti ishlab shiqarish hajmidagi hissasi 10,2 foizga teng. Uning tarkibida plastmassa quvurlar, sintetik yuvish vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar bor.

Toshkent shahri qurilish sanoati korxonalariga to'rtta uysozlik kombinati, temir beton buyumlari zavodi, g'isht zavodlari, qoplama bezak va quyosh nuridan saqlash moslamalari zavodi mansub. Ushbu tarmoqda «Toshkent marmar» birlashmasining ahamiyati katta.

Toshkent shahar sanoat majmuining faoliyatini elektr energetikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Uning yetakchi korxonalari ToshIES, Toshkent GESlar kaskadi va Toshkent issiqlik elektr markazidan iborat. Toshkent GESlar kaskadi tarkibida Bo'zsuv, Bo'rjar, Oqtepa va Shayxontohur GESlari ishlab turibdi.

Yuqorida qayd etilgan sanoat korxonalaridan tashqari aholi uchun iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan fabrikalar, grammofon plastinkalari va zargarlik zavodlari, musiqa asboblari va mebel fabrikalari, chinni, fayans, termos, badiiy buyumlar fabrikasi va boshqa korxonalar bor.

2009 yili Toshkent shahri bo'yisha xorijiy investorlar bilan barpo etilgan 2621 qo'shma korxona ro'yxatga olingan. Hozirgi kunda ularning 1686 tasi yoki 65 foizi faoliyat ko'rsatmoqda. Yirik qo'shma korxonalarga «GM elektroniks» (AQSh), «UzBAT» (Buyuk Britaniya), «Toshinterm» (XXR), «Uzitalholding», «Sovplastital» (Italiya), «KabulO'zbek» (J.Koreya) va boshqalarni kiritish mumkin. Qo'shma korxonalarda ishlayotganlarning soni 37,2 ming kishini tashkil qiladi.

Respublikada qurilayotgan qo'shma korxonalarning ko'pchiligini bevosita Toshkent shahri va unga tutash hududlarda o'rnatishiga eng avvalo Toshkentning mamlakat poytaxti hamda yirik sanoat, fan va madaniyat markazi ekanligi, muhim transport yo'llari chorrahasida joylashganligi va ayniqsa, ishlab chiqarish hamda sotsial infratuzilmaning yuqori darajada rivojlanganligi katta ta'sir ko'rsatadi.

Toshkent shahrida sotsial sohalar xususan, ijtimoiy infratuzilma tizimi yaxshi rivojlantirilgan. Toshkentda jami 29 ta oliy o'quv yurti mavjud bo'lib, ularda 80 mingdan ortiq talaba bilim olmoqda. Umumta'lim maktablari soni 359 ta, o'quvchilar soni 380 mingga yaqin. Shuningdek, poytaxtda mustaqillik yillarida 18 ta akademik litseylar barpo qilindi. Ularda jami 3709 o'quvchi tahsil olmoqda. Maktabgacha bolalar muassasalari soni 586 ta bo'lib, ularda 108,2 ming bola tarbiyalanadi. Bolalarning maktabgacha yoshdagi tarbiya muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi 50,9 foizga teng.

Hozirgi kunda Toshkent shahrida jami 96 ta kasalxona mavjud, ulardagi koykalar soni 17,3 mingdan iborat. Har 10 ming kishiga 80,9 koyka hamda 220,7 ta bir smenadagi vrash qabuliga murojaat etuvshilar to'g'ri keladi. Shahar sog'liqni saqlash muassasalarida jami 17 ming vrach mehnat qilmoqda. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatuvchi nodavlat muassasalarining soni 142 ga etdi.

Bulardan tashqari, Toshkent shahrida qator teatr, muzey va istirohat bog'lari barpo qilingan.

Transport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Toshkent shahrida transportning

temir yo'l, avtomobil, havo, shahar elektr transporti kabi turlari yaxshi rivojlangan.

2009 yilda tashilgan yuklarning umumiy hajmi 63238,7 ming tonnani tashkil etib, yuk aylanmasi 6672 mln.t.km ga teng. Jami tashilgan yuklarning 80,9 foizi avtomobil, 19,0 foizi temir yo'l hamda 0,1 foizi havo transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Jami tashilgan yo'lovchilar soni 1055152,4 ming kishini tashkil etdi. Yo'lovchi aylanmasi-12842,1 mln. yo'lv. km ga teng. Yo'lovchi tashishda avtomobil transporti 72,3 foizini, shahar elektrtransporti 26,5 foizini tashkil qiladi.

Toshkentda 1977 yildan metro qatnovining yo'lga qo'yilishi yo'lovchi tashishda juda katta qulayliklarni yaratdi. Toshkent shahri 2009 yilda Toshkent iqtisodiy rayoni tashqi savdo oborotining 72,7 foizni o'zida mujassam etdi. Shahar tashqi savdo aylanmasida importning ulushi eksportdan ustun, ya'ni 61,2 foizga teng. Keyingi yillarda import hajmi qisqarib, eksport hajmining biroz o'sishi kuzatilmoqda.

Toshkent shahri tashqi savdo aylanmasining 54,2 foizi «uzoq» xorij va Boltiqbo'yi davlatlari ulushiga, qolgan qismi esa Hamdo'stlik mamlakatlariga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz poytaxtida keying yillarda tarixiy obidalarni tiklash, shaharni obod etish, xalq farovonligini oshirishda chinakam tarixiy ahamiyat kasb etayotgan bunyodkorona ishlar ko'lamini yanada yangi, yuqori bosqichga ko'tarildi.

Toshkent o'zining olis va boy tarixi davomida boshidan qancha-qancha sinov va mashaqqatlarni o'tkazgan, ne-ne buyuk voqealarning guvohi bo'lgan, doimo ulkan siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy mavqeini saqlab turgan va shu bois turli davrlarda turlicha ulug'langan. Poytaxtimizning "Tinchlik shahri", "Do'stlik shahri", "Jasorat shahri", "Non shahri", "Bog'-rog'lar shahri", "Sharq darvozasi" sifatida shuhrati Mashriq Mag'ribga yoyilgan.

2007 yili bu ta'riflar qatoriga ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha xalqaro islom tashkiloti (ISESCO) "Toshkent – islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qildi.

Bu yuksak nom qo'shlgani jahon hamjamiyatining Vatanimiz va uning poytaxtiga chuqur ehtiromining yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Bu mamlakatimizda islom madaniyati hamda ma'naviy qadriyatlarni tiklash va saqlab qolish bo'yicha amlaga oshirilayotgan ezgu ishlarning xalqaro ko'lamdagi yana bir e'tirofidir. President islom Karimov bu fakti "o'zbek xalqining islom madaniyati rivojiga qo'shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho", deb ta'rifladi.

Ko'p asrlik tarixga ega Toshkent yaqinda o'zining 2200 yillik yubileyini nishonladi. Bugungi kunda poytaxtimiz transport, ijtimoiy infratuzilma, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarining ko'plab korxonalari, xalqaro standartlarga javob beradigan ilm-fan, ta'lim, madaniyat muassasalari rivojlangan zamonaviy megapolis hisoblanadi.

2008 yilda deyarli barcha ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sishga erishildi. Masalan, poytaxt korxonalari tomonida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 2007 yilga qaraganda 36,8 %, tashqi savdo aylanmasi 15,5 %, eksport hajmi 22,6 %ga ko'paydi. Shahar sanoatida eng zamonaviy texnologiyalar va uskunalari bilan jihozlangan elektr texnikasi, samolyotsozlik, mashinasozlik sohasi korxonalari yuqori sifatli, haridorgir mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Toshkentda 30 mingdan ortiq kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda yaratilgan qulay investitsiya muhiti, horijiy sarmoyadorlarga berilayotgan imtiyozlar uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish, horijlik sheriklarga ishlab chiqarish korxonalarini xususiylashtirish va modernizatsiyalash dasturlarida faol ishtirok etish imkonini bermoqda. Shuningdek, Toshkentda har yili 50dan ortiq ixtisoslashgan xalqaro savdo yarmakalarining o'tkazilishi ham turli mamlakatlar ishbilarmon doiralarning O'zbekiston bilan hamkorlik qilishdan manfaatdorligi oshishiga zamin bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi rahbari Jorj Nikolson O'zbekistonda amalga oshirilayotgan, puxta o'ylangan iqtisodiy

siyosat tufayli bugun mamalakat global iqtisodiy inqiroz ta'siridan yetarli darajada himoyalangani, kichik va xususiy biznesga jalb qilinayotgan chet el investitsiyalari hajmi tobora ko'payayotgani va uni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit yaratganini ta'kidladi.

“Spenteks” korxonasi bosh direktori Santosh Kumar Jeyn ham O'zbekistonda ishlab chiqarishni kengaytirish istiqbollari keng ekanini qayd etdi. Bugungi kunda ushbu korxoning Toshkent shahri va viloyatida joylashgan ikkita hududida qariyb besh ming kishi mehnat qilmoqda. Tadbirkorning ta'kidlashicha, to'qimachilik va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida mamlakatimiz ulkan ishlab chiqarish hamda kadrlar salohiyotiga ega. Shu bois ham “Spanteks” ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida qo'shimcha mablag'lar yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

Toshkentdagi “Zenith electronics” qo'shma korxonasi “LG” rusumidagi televizorlar hamda maishiy konditsionerlarni, “Roison Electronics Co. LTD” kompaniyasi esa “Roison” televizorlari va “Samsung” konditsionerlarini, shuningdek, DVD-pleerlarni keng savdoga chiqarmoqda.

Bu – poytaxtimizdagi necha minglab ishlab chiqarish korxonalarida tayyorlanayotgan raqobatbardosh tovarlar “daryosi” dan “bir tomchi”, xolos. Zotan, ayni paytda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 16 foizi, tashqi savdo aylanmasining salkam 38 foizi, servis va xizmatlarning 31 foizi Toshkent shahri ulushiga to'g'ri kelishi bejiz emas.

Sanoatimizning tayanch ustunlari hisoblangan Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, “O'zkabel”, “Toshkent traktor zavodi”, “Sovplastital”, “Toshkent lak-bo'yoq zavodi”, “Fayz”, “Ozelektroapparat” kabi yirik korxonlar o'zining ishlab chiqarish salohiyati va malakali kadrlari bilan nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham yaxshi ma'lum.

Ayni vaqtda eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangidan-yangi korxonalarnig paydo bo'layotgani e'tiborga molikdir. Toshkentda birgina 2007

yilda 28 zamonaviy korxona foydalanishga topshirildi.

Shahardagi sanoat korxonalarining quvvati tobora oshib bormoqda. 2000-yildan buyon poytaxt korxonalarida traktorlar ishlab chiqarish 3 baravarga, traktor trikamalari va rangli televizorlar – 5 barovarga, konditsionerlar – 6,5 barovarga ko'paygani shundan dalolatdir. Qariyb 3 ming korxona dunyoning yuzdan ortiq mamlakatidagi kompaniya va firmalar bilan samarali tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatganligi hisobiga – o'tgan yili 2,6 milliard dollarlik mahsulot eksport qilishga erishildi.

Tarmoqdagi bunday ijobiy o'zgarishlar bevosita investitsiya jarayonlarining faollashuvi samarasidir. Keying yillarda Toshkent shahri sanoatiga 1,3 milliard dollar miqdorida investitsiyalar jalb etilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Xususiy tadbirkorlarga yaratilgan shart-sharoitlar tufayli shaharda kichik biznesning yalpi ichki hududiy mahsulotdagi ulushi 52 foizga yetdi. Eng muhimi, mehnatga layoqatli aholining 68 foizi aynan shu sohada band ekani poytaxtda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qanday keng ko'lam va jadal sur'atlarda rivojlanayotganidan dalolatdir.

Toshkent shahridagi "Chorsu", "Oloy", "Parkent", "Chilonzor", "Mirobod" kabi bozorlar tubdan rekonstruktsiya qilingani, yangilari qurilgani ham ana shunday xayrli ishlar sirasidandir. Poytaxtimizda ayni paytda zamonaviy, ko'rkam va qulay yuzdan ortiq buyum bozori, dehqon bozori, shuningdek, qurilish materiallari savdosiga ixtisoslashgan bozorlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda sotilayotgan rang-barang mahsulotlarning bir qismi xorijdan olib kelinayotgan bo'lsa, asosiy qismi mahalliy tadbirkorlar tomonidan tayyorlanayotgani ham tahsinga loyiq.

Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida poytaxt aholisiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi oshib, sifati yaxshilanmoqda. Bunda poytaxtda keying yillarda barpo etilgan ixtisoslashgan tibbiy markazlar, keyinchalik ishga tushirilgan o'nta zamonaviy yangi poliklinika va

sog'lomlashtirish markazi, to'liq rekonstruksiya qilingan 23 davolash-sog'lomlashtirish muassasasi hamda mukammal ta'mirlangan 83 muassasaning hissasi katta.

Aholi salomatligini mustahkamlash masalasiga jiddiy e'tibor berilayotganligini poytaxtliklarning o'rtacha umr ko'rish darajasi sezilarli darajada uzaygani, ayollar, onalar va bolalar salomatligini ta'minlash yo'lida muhim natijalarga erishilgani misolida ham ko'rish mumkin. Ayniqsa, oxirgi o'n yida shahar bo'yicha aholining kasallikka chalinish darajasi 22 foizga, bolalar o'limi ko'rsatkichlari esa 1,4 barobar kamayganini alohida qayd etish lozim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining dastlabki samarasi bo'lmish mutlaqo yangicha o'rta maxsus ta'lim muassasalari – akademik litsey va kasb-hunar kollejlari aynan poytaxtimizda barpo etilgan edi..

Toshkentda Xalqaro Vestminster universiteti, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, G. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, Singapur menejmentni rivojlantirish institute filiali, I. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti filiallari faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro hamjamiyat va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi sifatida rivojlanib bormoqda va jahon moliyaviy-iqtisodiy jarayoni tobora kuchayib borayotganligini yaxshi anglab oldi. Shundan kelib chiqqan holda, inqirozning dastlabki belgi-alomatlari paydo bo'la boshlashi bilan mamlakatimiz sergak bo'lib, iqtisodiyotdagi real ahvol va sharoitlarni hisobga olib, bu masala bo'yicha zarur tayyorgarlik ko'rdi, o'z vaqtida ehtiyotkorlik bilan ish tutib, keng ko'lamli dasturlarni qabul qildi.

Shu borda ko'rilayotgan chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari haqida so'z yuritganda, eng avvalo, iqtisodiyotni real sektorini yukini osonlashtirish, soliqlarni kamaytirish va davlat tomonidan yordam berish, ishlab chiqarish sohasini ichki bozorning talab va ehtiyojlarini qondirish uchun qaratish, iste'mol tovarlarini tayyorlaydigan tarmoqlarga, kichik biznes va tadbirkorlik,

fermerlik harakatiga keng yo'l ochish va qo'shimcha imtiyozlar berish, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasini, qishloq taraqqiyotini mamlakatimiz rivojining yetakchi kuch sifatida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarishga alohida ahamiyat berildi. Eksportga yo'naltirilgan korxonalarni har tomonlama rag'batlantirish, ularning soliq yukini keskin kamaytirish, mahsulotini realizatsiya qilish uchun bozorlarni yanada kengaytirish shular qatorida muhim o'rin tutadi.

2009 yilning birinchi yarmi yakunlarini oladigan bo'lsak, shu davrda O'zbekiston iqtisodiyotining izchil va mutanosib rivojlanib, barqaror o'sish sur'atlariga erishganimizni qayd etish lozim. Shu vaqt mobaynida yalpi ichki mahsulot 8,2 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9,1 foizga, tovarlar eksporti hajmi 13,4 foizga o'sgani, shu bilan birga, inflyatsiya darajasi 3,5 foizdan ortmagani, amalga oshirilgan tadbirlar hisobidan mamlakatimizda 530mingdan ko'proq yangi ish o'rni yaratilgani, aholining real pul daromadlari 26 foizga o'sgani buni yaqqol ko'rsatib turibdi.

Iqtisodiyotimizni rivojlantirish, uni modrnizatsiya qilish va texnik-texnologik qayta jihozlash maqsadida jalb etilgan investitsiyalar hajmi shu yilning olti oyi mobaynida 32,7 foizga o'sgani, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalar hajmi 2,6 barobar ko'payganini qayd eish lozim.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi tashkilotlar, nufuzli xalqaro ekspert va tahlilchilar O'zbekistonda olib borilayotgan chuqur va keng ko'lamli islohotlarning amaliy samarasini munosib baholab, holisona tan olmoqda.

Xulosa

Dunyoning yirik sanoat markazlarida mehnatga layoqatli aholini, kapitalni va ishlab chiqarish markazlashuvi va yig'ilishi jarayonida megapolislar ishlab chiqarish kuchlarini dominant hududiy-tashkiliy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaharni urbanizatsiya muammolarini mashhur tadqiqotchilaridan biri, fransuz olimi F.Brodel, shaharlarni xususiyatlari va muammolarini o'rganib, yozgan, shaharlar va pullar yangi dunyoni yaratdi, bir vaqtning o'zida rivojlanishni ko'rsatkichi va harakatga keltiruvchi omilidir, o'zgarishlar keltirib chiqaradi va ularni ko'rsatadi, lekin ular sababchisi hamdir.

Megapolislarni paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganishni muhimligi, turli xil davrlarda dunyo hamjamiyatlarini jahondagi milliy boylik va hokimiyatni taqsimlashda bosh rolni yuqori darajada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish markazlari geografik joylashuvi (muhammud rol) o'ynaganligi bilan tushuntirish mumkin. Megapolislarni tadqiqot qilish jarayoni XX asrning ikkinchi yarmining boshiga to'g'ri keladi. Masalan, 1960 yil J. Gotmanning monografiyasida "Megapolis" birinchi bor yirik shaharlar kategoriyasidan megapolislar ajratib olindi va mustaqil guruhlariga aniq ajratildi, shaharlarni rivojlanishi va urbanizatsiyani yangi etapini o'ziga xos ko'rinishiga aylandi.

Megapolislar jahon markazlari yoki global shaharlar xususiyati va ko'rinishiga ega bo'lib, jahon iqtisodiyoti, siyosati, madaniyati va inson jamiyatida umuman katta ta'sir ko'rsatadi.

Megapolislarni eng tarqalagan xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

- shaharni kattaligi;
- moliya va ish markazi sifatida umumjahon roli;
- xizmatlar sohasini rivojlantirganligi;

- axborot markazi sifatida jahondagi o'rni;
- siyosiy markaz sifatida nafaqat milliy, balki jahondagi yetakchi o'rni;
- xalqaro tashkilotlarni mavjudligi va shaharni xalqaro funksiyalarni bajaruvchi sifatidagi vazifasi;
- transmilliy kompaniyalar shtab-kvartiralarining va idoralarni yirik filiallarini yig'ilganligi;
- milliy va jahon savdo markazlari sifatidagi roli;
- san'at va madaniyat markazi sifatidagi yuqori ahamiyati;
- yuqorimalakali faoliyat turlarining muhim markazi sifatida;
- xalqaro transport yirik tarmog'i va shahar ichidagi transport muammolarini mavjudligi;
- aholini asosiy guruhlar o'rtasidagi ijtimoiy va iqtisodiy disproportsiyasini kattalashishi.

Megapolislar – urbanizatsiyaning eng yuqori darajasidir. Urbanizatsiya – bu nafaqat shaharlarni tez o'sishi va rivojlanishi, shahar aholisi ulushini oshishi, balki, jamiyatda va hayotni barcha sohalarida shaharni roli va ahamiyatini oshishi, hamda shahar aholisini qishloq aholisidan ortib ketishidir. Bir-biriga yaqin joylashgan, ko'p sonli shahar aglomeratsiyalarini bir joyga yig'ilishi va megapolis deb nomlanishga tendensiyalarni mavjudligidir. Birinchi bor bu atama yuqorida aytib o'tilgan J. Gotman tomonidan bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan AQShning shimoli-sharqi bo'ylab Bostondan Vashingtongacha cho'zilgan muttasil shahar qurilishini ("Bosvash" hozirgi kunda o'z ichiga dunyoning 15ta aglomeratsiyasini o'zida jamlovchi, aholisi 40 mln kishi) nomlash uchun ishlatilgan.

Megapolislar tarkibiga kiruvchi barcha shaharlar, aholini murakkab mayatniksimon tashish umumiy transport tizimiga egadir. Sanoat, transport va aholini ko'payishi yirik va eng yirik shaharlarda ekologik yashash muhitini keskin yomonlashtiradi. Jahonning gigant shaharlarida aholini o'rtacha zichligi

quyidagicha(1kmI):

- Parij – 32ming kishi;
- Tokio – 16ming kishi;
- Nyu-York, London – 10ming kishi;
- Moskva – 9ming kishi;

Shular qatorida Shanxay gigant shaharlar qatoriga kiradi. XXRni “Iqtisodiy poytaxti” – Shanxay – mamlakatning yirik sanoat, savdo, transport, moliya va madaniyat markazidir. Shanxay Yantszi daryosi havzasida, Sharqiy-Xitoy dengizining bo'yida joylashgan bo'lib, Tszyansin va Chjenzyan provinsiyalari bilan chegaradosh. Megapolis maydoni – 7037,5 kv.km, bu Xitoy hududini 0,01 %i deganidir. Shanxay(ma'nosi “dengi ustida” 25mln aholi, 2011) Xitoyni nafaqat iqtisodiy poytaxti, balki Osiyo Tinchokeani mintaqasida yirik va rivojlangan texnologik va iqtisodiy jahon markazlaridan biri hisoblanadi. Shanxay shahri – eng katta megapolisidir. Nyu-York va Londondan so'ng jahonni uchinchi moliya markazi hisoblanadi. Xitoyni muhim moliya va madaniyat markazi, yukaylanmasi bo'yicha jahonni yirik dengiz portlaridan biri va superzamonaviy megapolisidir. Shanxay YaIMsi Ukraina YaIMsidan yuqoriroq. Shanxay Gonkong bilan moliya sohasida yetakchilikka kurash olib borib, Shanxay fond birjasini barqaror rivojlantirmoqda.

Shanxay – markazga bo'ysunuvchi 4ta shahardan bittasi , Pekin, Chuntzin va Tyanzin bilan bir qatorda turadi. Shahar aholisidan tashqari shaharda 5 mln migrantlar vaqtinchalik ro'yxatda o'tgan holda yashaydi.

Oxirgi vaqtda Shanxayni “tashrif qog'ozi” sifatida qishloq xo'jaligi va botqoqliklarni o'rnida paydo bo'lgan Pudun yangi rayoni bo'lib kelmoqda. U yuqori texnologiya va nou-xou sohasida yetakchi bo'lib kelmoqda. Shanxay yirik megapolislar qatoriga kiradi.

Yirik megapolislar murakkab va aniq bo'lmagan hududiy chegaralarga ega bo'lib, megapolislar quyidagi qismlarga bo'linadi;

- Markaziy qism – biznes va boshqaruv yuqori muassasalarining joylashuv markazi;
- Ichki qism – markaziy hududga shahar qurilishlarini qo'shilishi;
- Tashqi qism – shaharni ma'muriy chegaralaridan tashqaridagi hududi, markaziy va ichki qismini qo'shmagan holda.

Zamonaviy megapolislar juda muhim muammolar bilan bog'liq bo'lib, ular XXI asrda makroiqtisodiy jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Megapolislar makroiqtisodiy va makroiqtimoiy tendensiyalar markazi hisoblanadi. Megapolislarni rivojlanishini asosiy tendensiyalari: globalshuv, axborot texnologiyalarini ahamiyatini oshishi, insonni ijtimoiy hayotidagi turli tomonlaridagi innovatsiyalardir. Ushbu tendensiyaning har biri jamiyatni ijtimoiy va siyosiy hayotiga ta'sir etib, o'zini sabablariga ega va megapolisga umumiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun megapolislardagi ijtimoiy muammolarni ko'rib chiqishni asosiy omili bo'lib, ularni rivojlanish tendensiyalarini ko'rib chiqish sanaladi.

Shunday qilib, J. Gotmanning amerika megapolisi "Bosvash"ni tadqiq etishdagi, megapolis haqidagi tushunchasini to'g'ri deb hisoblayman. Muallif yirik jahon megapolislari tizimiga qisqa tushuncha berib, megapolislarda sanoat, transport va aholini yuqori konsentratsiyasi ko'rsatib o'tdi. Bu esa ekologik holatni yomonlashishiga va turli xil ijtimoiy muammolarni kuchayishiga olib keladi.

Megapolislarni chegaralarini hududiy analiz qilib, markaziy, ichki va tashqi qismlarga ajratib chiqildi. Megapolisni markaziy va ichki hududlarida ba'zi bir ijobiy va tashqi qismida salbiy tendensiyalar belgilangan.

Megapolislarda turli xil tendensiyalar ko'rinadi, ular qatorida makroiqtisodiy makroiqtimoiy, ular joylashgan mamlakatlar uchun ham xosdir. Ayniqsa bu xususiyat poytaxti megapolislar bo'lgan mamlakatlar uchun xosdir(London, Parij va h.) ularda poytaxt funksiyalarini haddan ortiq yig'ilishi, yirik jahon korporatsiyalari, qudratli moliya tizimlari va boshqa muhim holatlar bu

megapolislarni nafaqat mamlakat, balki jahon mintaqalaridagi(Yevropa va b.) ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rnini belgilab beradi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙЎАТИ

- Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.— Т.:Ўзбекистон, 2008- 40 б.
- “Халқ сўзи” газетаси. 2011 йил 20 апрель.
- И.А.Каримов. “Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш — тараққиётимизнинг муҳим омилидир”. Президент Ислам Каримов ЎзР Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси.07.12.2010 й. www.press-service.uz
- “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга ҳаракат қилади.” Президент И.А.Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимизни ижтимоий иқтисодий ривожлантириш йўналишлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор

йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. www.press-service.uz

- Каримов И. А. Жаҳон ҳамжамияти билан ҳамкорлик // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б. 130.
- Ван Ин. Присоединение Китая к ВТО: условия и последствия. – М.: МГИМО – Университет, 2009.
- Гудошников Л.М. Современное законодательство КНР. Сборник нормативных актов. – М.: Зерцало, 2010
- Дай Юэ. Формирование инвестиционного климата в КНР: тенденции, проблемы, перспективы: Автореф. дис. ... канд. экон. наук. М., 2009.
- Великомыслов Ю.Я. Иностранные инвестиции. Международно-правовое и внутригосударственное регулирование деятельности предприятия с иностранными инвестициями. – М., 2010.
- Смаилова Г. Новые возможности торгово-экономического сотрудничества КНР и государств Центральной Азии в рамках ВТО // Китай и страны Центральной Азии в современных геополитических условиях. Сборник статей. / Под ред. Л.Музапаровой. - Алматы: Центр по изучению Китая при ИМЭП, 2008. - стр. 87-90.
- Ли, Теин. Развитие китайской экономики в XXI веке: проблемы и перспективы // Халқаро муносабатлар. - Т., 2001. - №4. - стр. 13-19
- Ўзбекистон Республикаси ТИАИСВ ЖА. Ўзбекистон Хитой алоқалари тўғрисидаги ахборот-маълумотнома тусидаги материаллар.
- Bailes A. Dunay P., The Shanghai Cooperation Organization as a regional security institution// The Shanghai Cooperation Organisation, Stockholm International Peace Research Institute, Policy Paper No. 17, (May 2007) <http://www.sipri.org/contents/publications/Policypaper17.html#download>
- Поощряемые сферы для привлечения инвестиций в Китайскую Народную Республику. Торговое представительство России в КНР [электронный

ресурс] Режим доступа: <http://russchinatrade.ru/ru/about-china/invest-in-china>.

- Азиатский мир. Куда движется Китай? О последнем съезде КПК и перспективах социализма. // Перспективы. [электронный ресурс] Режим доступа: http://www.perspektivy.info_2007-11-15-34-51.htm.

- Li, Yuefen. Why is China the World's Number One Anti-Dumping Target? // China in a Globalizing World. - New York and Geneva: United Nations, 2005. - p. 109.

- Асадуллаева И.Р. Хитой ташқи иқтисодий фаолиятига глобаллашувнинг таъсири: умумжаҳон тенденциялар ва намоён бўлиш хусусиятлари: Дисс. и.ф.н. -Т., 2006.

- Исаджанов А.А. Внешнеэкономическая политика Китая в условиях глобализации // Халқаро муносабатлар. - Т., 2009. - №1. - стр. 45-46.

- Мелибаева Г.А. Экономическое сотрудничество Китая со странами Центральной Азии. – Т., 2010.

- Китай во главе Ху Цзиньтао в 2010 г. увеличил объем внешнеторгового оборота. www.rbs.ua/rus.

- Деловой журнал "ChinaPRO" - Весь Китай # 2 (32) от 05.03.2008 года. Законы Китая / <http://www.chinapro.ru/law/32/>

- Лаппо Г.М. География городов. М.: ВЛАДОС, 1997.

- Максаковский В.П. Географическая культура. М.: ВЛАДОС, 1998.

- Смирнов Е.Н. Введение в курс мировой экономики (экономическая география зарубежных стран). М.: КноРус, 2008.

- Занадворов В.С., Занадворова А.В. 1998. Экономика города (вводный курс). М., “Магистр”.

- Портер М. 1993. Международная конкуренция. М., “Международные отношения”.

- Bailly A. & Maillat D., 1999. “Developpement Regional et Services aux

Entreprises“ в кн. “La dynamique spatiale de l'economie contemporaine“ (ed. G.B. Benko), La Garenne-Colombes, ed. de l'Espace Europeen.

- Bonamy J., & May N. 1999. Services et Mutations Urbaines. P., Anthropos.
- Camagni R. 1999. Organisation economique et reseaux de villes. En livre “Espace et Dynamiques Territoriales”. (ed. P.H. Derycke) P., Economica..
- Camagni R. 2001. Principes et Modeles de l'economie Urbaine. P., Economica.
- Canada & the Global Economy., 1996. (ed . J. N. Britton), Montreal & Kingston, McGill - Queen`s University Press.
- Dicken P., 2002. Global Shift. The Internationalisation of Economic Activities, L., Paul Chapman Publisher Ltd.
- Evans A.W.2002. Urban Economics (an introduction). Oxford, Blackwell Publishers.
- Gadrey J., 2005. L'Economie de services, P., La Decouverte, coll “Reperes”, № 113.
- Illeris S., 2009. Services & Regions in Europe. Aldershot. Gower.
- Jouvaud M., 2005. Localisation de services aux entreprises: combinaison de facteurs et types d'activites, Notes de recherche du Centre d'economie regionald`Aix-en-Provence, № 173, 2004/5.
- Les Services dans les Societes Industrielles. 2005. (ed De Bandt) P., Economica.
- Malecki E.J., 2001. Technology and Economic Development: the Dynamics of Local, Regional and National Change. Harlow. Longman Scientific and Technical.
- Marshall J., 2008. Services and Uneven Development. Oxford: Oxford University Press.
- Merenne-Schoumaker B., 2006. La Localisation des Services. P., Nathan.
- Payne A., 203. The Essence of Service Marketing, NY, Prentice Hall,
- Relation de Services, Marches de Services. 1994. (eds. De Bandt J., Gadrey

J.). P., CNRS ed.

- Stephen J.D. & Holly B. P., 2001. City System Behaviour & Corporate Influence: The headquarters location of U.S. industrial firms., Urban Studies, 18, 3 (October)
- Veltz P., 2006. Mondialisation, Villes et Territoire. L'économie de l'archipel, P., P.U.F.